

31.2 Udd  
26-62

# URDU TILI

TOSHKENT

B1.22  
22-62  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

## URDU TILI

اردو زبان

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.*

TOSHKENT-2018

**UO'K: 811.214.22(075)**

**KBK 81.2Urdu**

**U 62**

**U 62 Urdu tili (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 420 bet**

**ISBN 978-9943-11-888-1**

Ushbu darslik urdu tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Darslikda kirish, asosiy qism, glossariy va lug'at o'rin olgan. Darslikning bunday tarkibi urdu tilini mukammal o'zlashtirishga xizmat qiladi. Grammatik mavzu mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Darslikning fonetika bobi katta o'qituvchi M.Murtazaxodjayeva, morfologiya va sintaksis bobi o'qituvchi U.Zokirova (13-15-darslar), o'qituvchi M.Shorahmedova (16-23-darslar), dots. M.Abduraxmonova (24-32-darslar) tomonidan tayyorlandi.

**UO'K: 811.214.22(075)**

**KBK 81.2Urdu**

**Mualliflar:**

**M.ABDURAXMONOVA, M.MURTAZAXODJAYEVA,  
U.ZOKIROVA, M.SHORAHMEDOVA**

**Mas'ul muharrir:**

**Muxibova U.U. - XSHMA kafedrası mudiri, f.f.d.**

**Taqrizchilar:**

**Mirzayeva M. - TOSHI qoshidagi Olmazor akademik litseyining  
urdu tili o'qituvchisi;**

**Nurmatov S. - TDSHI Janubiy Osiyo tillari kafedrası mudiri f.f.n.,  
dotsent.**

**ISBN 978-9943-11-888-1**

**© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.**

## URDU TILI TARIXI<sup>1</sup>

**Urdu** – hind-yevropa tillari oilasining hind-oriy tillari guruhiga mansub til bo'lib, Pokistonning rasmiy va Hindistonning Konstitutsiyada tan olingan o'n beshta asosiy adabiy tillardan biri. Pokistonda, asosan, yirik shaharlar sanalmish Karachi, Ravalpindi, Laho'r, Islomobod va boshqa shaharlarda, Hindistonda esa Uttar Pradesh, Bihar, Maharasht, Andhra Pradesh kabi shtatlaridagi musulmon aholi urdu tilida gaplashadi.

Urdu Dehli atrofidagi **khari bo'li** deb ataladigan lahja asosida tashkil topgan. Ma'lumki, XIII-XIV asrlarda og'zaki muomala tili – hindustaniy (hindaviy) bo'lgan. Mazkur tilning Dekan, ya'ni Janubiy Hindistondagi shakli **dakhiniy** («janubiy») deb nom olgan. Hindustaniyning avval **rexta**, keyinchalik urdu deb atalgan adabiy shakliga, uning leksikasiga fors tili kuchli ta'sir o'tkazgan<sup>2</sup>.

Hozirgi urdu XIX asr boshlarida asosan shakllanib bo'lgan. Urdu hindiy tilidan alifbosi va leksikasi bilan farq qiladi. Urdu imlosi bir qancha yangi belgilar qo'shilgan arab-fors alifbosiga asoslangan. Pokiston urdusida leksikaning boyish manbai, asosan arab va fors tillari bo'lsa, Hindiston urdusida hindiy (sanskrit) tilidir. Urdu bilan hindiy orasida ayrim fonetik va grammatik farqlar ham bor.

Hozirgi Pokiston hududida odam paleolit davri oxiridan boshlab yashab keladi. Miloddan avvalgi III mingyillikning boshida Hind daryosi va irmoqlari vodiysida jahonning eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri – Harappa madaniyatiga mansub dastlabki davlatlar paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi VI asr oxirida bu yerlar qadimgi Eronning Ahomaniylar saltanati tarkibiga qo'shib olindi. Miloddan avvalgi 327-336-yillarda esa uni makedoniyalik Aleksandr zabt etdi. Uning vafotidan so'ng bu yerlar mauriylar imperiyasiga qo'shib ketdi. Miloddan

<sup>1</sup> Urdu tili tarixi M.X. Abduraxmonovning "Urdu tili leksikologiyasi" dan olindi. (Toshkent, 2018 yil, 8-11-betlar)

<sup>2</sup> شمس الرحمن فاروقی، اردو کا ابتدائی زمانہ: ادبی تہذیب و تاریخ کے پہلو (کراچی: آج کی کتابیں، 1999ء، ص ۳۳۳)

avvalgi II asrning boshida Pokiston hududida Hind-yunon podsholigi deb ataladigan davlat vujudga keldi.

Milodiy I-III asrlarda Hind daryosi havzasi Kushon imperiyasiga qo'shib olindi. Purushapura shahri (hozirgi Peshovar) uning poytaxti bo'ldi. Kushon podsholigi parchalangandan so'ng, hozirgi Pokistonning g'arbiy qismlari **sosoniylar**, sharqiy qismlari **guptalar** saltanatiga qo'shib ketdi. V asrning ikkinchi yarmida bu yerda VI asr o'rtalariga qadar **eftaliylar** hokimiyati o'rnatilib, Sakala shahri (hozirgi Siyalkot) mamlakat poytaxti bo'ldi.

Biz yaxshi bilamiz, VII asrda arab xalifaligi vujudga kelgan. Bu eng avvalo, islom dinining shakllanishi va rivoji bilan bog'liq. Tinimsiz bosqinchiliklar oqibatida Eron va Janubiy Osiyoni ishg'ol qilish boshlanadi. Shu yurtlarda arab tamadduni va albatta, islom dinini targ'ib qilish kuchayadi.

664-yilda arablar Hind daryosi vodiysiga bostirib kirdilar, 711-713-yillarda Muhammad ibn Qosim qo'mondonligidagi qo'shinlar Sind va Panjobning janubiy qismini egalladi. Shu tariqa hozirgi Pokiston hududida islom dini tarqala boshladi. 750-yilda umaviylar xalifaligi ag'darilgach, Sind mustaqil davlatga aylandi. Arablardan keyin birinchi marta hind diyoriga XI asrda turklar sulton Mahmud G'aznaviy boshchiligida bostirib kirdi. Hindistonga hamla qilishdan oldin g'aznaviylar Yaqin Sharq va O'rta Osiyoni Qoshg'argacha zabt qilgan edi. Mana shu paytdan hindlarni islomga kiritish jarayoni boshlanadi. 1206-yili Sulton Muhammad G'uriyning sarkardasi Qutbiddin Oybek Dehlini egallaydi.

XIII asrda musulmon davlati Dehli sultonligi tashkil topdi. Bu yerdagi musulmonlarning katta qismi O'rta Osiyodan edi. Albatta ular o'zi bilan birga madaniyati, tili, rasm-rusumi va urf-odatini olib kelgan. Ular Bobur hamlasiga qadar 350 yil Hindistonda hukmronlik qilganlar.

Beto'xtov urushlar, isyonlar va chet el bosqinlariga qaramay, Hind daryosi havzasidagi Laho'r, Mo'ltan, Peshovar, Tatta kabi yirik shaharlar muhim iqtisodiy va madaniy markazga aylanib, bir qator mamlakatlar bilan savdo munosabatlarini rivojlantirishda katta

ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning bu mavqei boburiylar davlati davrida ham saqlangan.

1525-yilda Farg'ona hukmdori Z.M. Bobur hind diyorini zabt etadi. O'z-o'zidan ma'lumki, mahalliy aholi bilan bosqinchilar bir-biri bilan kundalik turmush, har kungi ehtiyojlar sababli muloqotda bo'lganlar va ayni shu omil tufayli mamlakatda so'zlashilgan og'zaki hindiy tiliga bosqinchilar tilining ta'siri katta edi, bu holat urdu tilining kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Urdu "o'rda" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *armiya, qo'shin to'plangan joy ma'nosini bildirgan*<sup>1</sup>.

1707-yilda shoh Avrangzeb vafotidan so'ng Hind daryosi havzasi eron, afg'on va mahalliy zamindorlarning kurash maydoniga aylandi. XVIII asr o'rtalarida hozirgi Pokiston hududi – afg'on shohi Ahmadshoh Durroney tasarrufiga o'tdi. XVIII asrning 60-yillarida Panjobda bir nechta sultonlik vujudga keldi, maharaja Ranjit Singh (1799-1839-yillarda hukmronlik qilgan) ularni yagona davlatga birlashtirdi.

Qadim yunon olimlarining guvohlik berishicha, hind diyoridan tovarlar Ovrupoga Amudaryo orqali Kaspiy dengizigacha, undan to Qora dengizgacha olib borilgan. Shubhasiz, hind tojirlari Amudaryo bo'yida yashagan aholi bilan savdo-sotiq qilgan, muloqotda bo'lgan.

Endi mamlakatning o'zida musulmon hukmronligi davrida bu aloqalar keyingi rivojlanish pallasiga kiradi. Bu hududda movarounnahrlik tojirlarni ham ko'rish mumkin edi. Juda ko'plari shu yerning o'zida qolib ketgan.

Boburiylar saltanatining inqirozga yuz tutishi, ichki urushlar, eron va afg'on hukmdorlarining bostirib kirishlari ingliz mustamlakachilarining bosqinchilik rejalari amalga oshishiga qo'l keldi. Ular 1843-yil Sindni, 1845-1849-yillarda Panjobni, 1854-yilda Balujiston va Sharqiy Pushtun qabila sultonliklarini bosib oldi.

---

1 مسعود حسین خاں، اردو زبان: تاریخ، تشکیل، تقدیر، خطیب پروفسر ایسے رئیس (علی گڑھ: شعبہ لسانیات، علی گڑھ مسلم یونیورسٹی،

Hindistonni zabt etgan musulmon doiralarining rasmiy tili forsiy bo'lgan. Mahalliy tillar bilan forsiyning eng ko'p to'qnash bo'lgan joylari bozorlar, harbiy lagerlar bo'lgan.

Urdu tili leksik qatlamida ko'proq musulmon hukmron doiralarining boshqaruvi, siyosiy tizimi bilan bog'liq atamalari, hindlarga islomning tatbiq qilinishi bilan bog'liq atamalar, harbiy ishlar bilan bog'liq so'zlar, savdo-tijorat bilan bog'liq leksika, bundan tashqari kiyim-kechak, uy jihozlarini anglatuvchi so'zlar va fors tili orqali turkiy so'zlar ham kirib keldi.

XVI asrdan yevropaliklarning Hindistonga bostirib kirishi natijasida urdu tiliga fransuz va ingliz so'zlari ham kirib kela boshladi. O'zlashmalar asosan ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, sanoat, jamiyat hayotining siyosiy-madaniy jabhalari bilan bog'liq.

# KIRISH.FONETIKA VA YOZUV<sup>1</sup>

## 1- DARS

### URDU TILI TOVUSHLARI. QISQA VA CHO'ZIQ UNLILAR.

#### UNDOSHLAR

**Mavzuning o'quv maqsadi:** *urdu tili fonetikasi bilan tanishib, urdu tilining unli va undosh tovushlarini nutqda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *fonetika, tovush, unli tovushlar, undosh tovushlar, diftong, cho'ziq unli, qisqa unli, transkripsiya, talaffuz, burunlashgan unlilar, alif, be, pe, te, Te<sup>2</sup>, se*

Urdu tili alifbosi arab-fors alifbosiga asoslangan bo'lib o'ngdan chapga yoziladi. Shuningdek, urdu tilida hind tovushlarini beruvchi qo'shimcha belgilar ham mavjud. Urdu alifbosi 51 harfdan iborat. Harflar ikki va to'rt ko'rinishga egadir.

Urdu tili unlilari o'zbek tili unlilaridan keskin farqlanuvchi jihatlariga ham ega, ya'ni unlilar qisqa va uzun, diftong va burunli. Urdu tilida sof unlilar 10 ta bo'lib, ularning hammasi burunlashgan juftiga ham ega. Urdu tilida unlilar taqsimoti quyidagicha:

- Qisqa – a, i, u
- Uzun -a:, i:, u:, o, e
- Diftong-a<sup>o</sup>, a<sup>y</sup>
- Burunli - aN, iN, uN, a:N, i:N, u:N, oN, eN, a<sup>o</sup>N, a<sup>y</sup>N.

<sup>1</sup> Darslikning mazkur bobini "Colloquial Urdu" (Tej. K. Bhatia, Ashok Koul, Routledge, 2013), "Urdu tili darsligi" (R.M. Muxammadjanov, V.A. Muxammadjanov T., 2014), «Учебник языка урду» (А.А. Давидова, М., 2003) kitoblari asosida tayyorlandi.

<sup>2</sup> Darslikda serebral harflarning transkripsiyasi bosh harflar bilan berildi (T,D,R)



## UNLILAR

*A* unlisi – qisqa, yopiq tovushdir. U o‘zbek tilidagi «olma, ancha» so‘zlaridagi «a» ga o‘xshaydi. Ushbu tovushni talaffuz qilayotganda og‘iz biroz ochiq holatda bo‘ladi, ya‘ni yuqori va pastki tishlar orasidagi masofa katta bo‘lmaydi. Lablar qimirlamaydi. Til nisbatan tekis holatda bo‘ladi. Masalan: *ab, tab, kab, tan, man, nazar, kamal, dastak, saltanat, kamarband.*

*I* unlisi juda qisqa tovush bo‘lib, uni talaffuz qilayotganda tilning uchi birmuncha pastga qarasa-da, ammo erkin holatda bo‘ladi. Masalan: *sin, is, bil, kis, kishmish, riban, sitam, milan, nikal, manzil, nisbat, tanik.*

*U* unlisi qisqa, lekin aniq talaffuz qilinadi va «un, qul» so‘zlaridagi «u» ga o‘xshaydi. Masalan: *us, un, dum, mulk, zulm, bulbul, gumsum, durust.*

Urdu tilida qisqa unlilar alohida harakatlar orqali ifodalanadi va ular yozuvda hamisha berilmasligi mumkin.

### Urdu tilida «A» unlisining fonetik xususiyati, uning reduktsiyaga uchrashi (qisqarib ketishi) va tushib qolishi

Urdu tilida asosan ketma-ket ikkita qisqa bo‘g‘in kelishi mumkin emas. Agar boshqa tillardan kirgan so‘zlarda ikkita qisqa bo‘g‘in ketma-ket kelsa, ko‘pincha ikkinchi bo‘g‘indagi qisqa «a» aytilmaydi, ya‘ni qisqarib tushib qoladi. Arab tilidan kirgan ba‘zi so‘zlar urdu tilida quyidagicha talaffuzga ega bo‘ladi:

*a-ra-bi:* → *ar-bi:* -arabcha    *ha-ra-kat* → *har-kat* -harakat  
*g‘a-la-ti:* → *g‘al-ti:* -xato    *vu-za-ra:* → *vuz-ra:* -vazirlar

Agar yangi so‘z yoki so‘z shaklini yasashda ikkita qisqa bo‘g‘in ketma-ket kelib qolsa, u holda qisqa «a» tushib qoladi va ikkita qisqa bo‘g‘in o‘rniga bitta cho‘ziq bo‘g‘in hosil bo‘ladi. Masalan:

*Qa-lam-ruchka* → *qal-mi:* - qo‘lyozmaga oid  
*hi-ran-kiyik* → *hir-neN* -kiyiklar  
*ni-kal (fe‘l asosi)* → *nik-lo-chiq*

Ikkita cho'ziq bo'g'in orasida qisqa bo'g'in bo'lsa, undagi qisqa «a» qisqaradi yoki tushib qoladi (qisqa bo'g'in yo'qoladi). Masalan:

*xa:-na-da:n* → *xa:n-da:n* -oila      *sal-ta-nat* → *salt-nat-saltanat*  
*a:-da-mi:* → *a:d-mi:* -odam      *mar-ka-zi:* → *mar-kzi:* -markaziy

Agar bir bo'g'inda ikkita undosh yonma-yon kelsa, u holda qisqa bo'g'inni saqlab qolgan ma'qul, biroq qisqa «a» ni juda qisqa aytish kerak. Mana bunday talaffuz qilinadi:

*xa:n-da:n* (*xa:-n-da:n emas*)      *salt-nat* (*sal-t-nat emas*)  
*a:d-mi:* (*a:-d-mi: emas*)      *mark-zi:* (*mar-k-zi: emas*)  
*ba-ra:d-ri:* (*ba-ra:-d-ri: emas*)      *dushm-ni:* (*dush-m-ni: emas*)

## UNDOSHLAR

Urdu tilining undoshlar tizimi o'zbek tili undoshlariga o'xshash hamda keskin farqlanuvchi jihatlari bilan ham ajralib turadi. O'zbek tili singari urduda ham undoshlar juda qattiq va yumshoq talaffuz qilinmaydi.

Urdu tilining undoshlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- Sof undoshlar
- Nafasli undoshlar
- Serebral undoshlar<sup>1</sup>

Unli va undosh tovushlar, shuningdek, ularning yozuvdagi ifodasi alifbo tartibida ko'rib chiqiladi.

### Urdu tili yozuvi

Urdu tili yozuvi arab-fors grafikasiga asoslangan bo'lib, lotin grafikasidan farqli o'laroq o'ngdan chapga ifodalanadi. Urdu tili yozuvining ikki xil turi mavjud: nasx va nastaliq. Nasx yozuvi arab tilida, nastaliq turidan esa asosan urdu yozuvida foydalaniladi. Urdu yozuvi boshqa til yozuvlaridan harflarning bir-biri bilan qo'shib yozilishi va so'zlardagi harf ko'rinishlari turlicha shaklga ega ekanligi bilan farq

<sup>1</sup> Serebral undoshlar haqida glossariyda to'liq ma'lumot beriladi.



chuqurchasiga tegadi. Chuqurchaning orqa devoriga salgina tegadi-yu, darhol uzoqlashadi.

I-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari			
		Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Mustaqil
<i>alif</i>	<i>a, a:, i, u</i>				
<i>be</i>	<i>b</i>				
<i>pe</i>	<i>p</i>				
<i>te</i>	<i>t</i>				
<i>Te</i>	<i>T</i>				
<i>se</i>	<i>s</i>				

### Unlilarning yozuvda ifodalanishi

#### (E'roblar)

*A, U, I* qisqa unlilar soʻzning oʻrtasida *zabar, zer* va *pesh* e'roblari vositasida ifodalanadi.

**Zabar** ( ) – yotiq chiziqcha boʻlib, undosh harfning ustiga qoʻyiladi va mazkur undoshdan keyin qisqa “a” deb oʻqiladi. Masalan:

*das* - oʻn

*varaq* – varaq

**Zer** ( ) – yotiq chiziqcha boʻlib, undosh harfning ostiga qoʻyiladi va mazkur undoshdan keyin qisqa «i» deb oʻqiladi. Masalan:

*din* – kun

*varzish* – sport

*jira:f* – jiraf

**Pesh** ( ) – vergul shaklidagi grafik belgi boʻlib, undosh harfning ustiga qoʻyiladi va oʻsha undoshdan keyin qisqa «u» deb oʻqiladi. Masalan:

*dum* – dum

*chup-jim*

Soʻzning boshida *A, U, I* qisqa unilari alif harfiga *zabar, zer, pesh* eʻroblarini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

*ab* – hozir

*uda:s* - gʻamgin

*idra:k* - aql, idrok

### **A: choʻziq unlisi**

**A:** unlisi choʻziq talaffuz qilinadi, oʻzbek tilida bunga aynan mos keladigan tovush yoʻq, lekin urdu tilidagi choʻziq «a:» ni talaffuz qilishda lablar qimirlamaydi, erkin holatda boʻladi. Masalan: *ka:m, da:m, ma:l, pa:n, a:za:d*.

**A:** unlisini soʻz oxiri va soʻz oʻrtasida **ʼ** alif bilan ifodalanadi. Soʻz boshida alif ustiga madda ( **˘** )belgisini qoʻyish ( **ʼ** ) orqali ifodalanadi. Talaffuz jihatidan qisqa *a* dan keskin farqlanadi. Unlilarning uzun qisqaligi soʻzning maʼnosini oʻzgarishiga olib keladi. Masalan:

*Ab* – “hozir, endi” ↔ *a:b* “suv”

*Kam* “kam” ↔ *ka:m* “ish”

*Nam* “nam, hoʻl” ↔ *na:m* “ism, nom”

*Farm* “firma” ↔ *fa:rm* “blanka”

## **AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR**

**1-topshiriq.** Qisqa “a” qayerda qisqarishi, qayerda yoʻqolishini misollar yordamida aniqlang:

*nazareN* -qarashlar

*aʼrateN* -ayollar

*xa:nada:n* -oila

*saRakeN* -koʻchalar

*adabi* -adabiy

*gandagi:* -ifloslik

*tazagi:* -tozalik

*pensileN* -qalamlar

*qalami:* -qoʻlyozmaga oid

*hamvatan* -vatandosh

<i>ka:g'az</i>	-qog'oz	<i>mehnatkash</i>	-mehnatkash
<i>ka:g'aza:t</i>	-hujjatlar	<i>mehnati:</i>	-mehnatsevar
<i>yaktarafa</i>	-bir tomonlama	<i>kashmakash</i>	-kurash
<i>g'alti:</i>	-xato	<i>saltanat</i>	-saltanat

**2-topshiriq. A, I va U unlisini to'g'ri talaffuz qilishni o'rganing. Quyidagi so'zlarni dastlab sekin, keyin tez talaffuz qiling:**

*ab, tab, kab, tan, man, nazar, kamal, dastak, saltanat, kamarband, sin, is, bil, kis, kishmish, riban, sitam, milan, nikal, manzil, nisbat, tanik, us, un, dum, mulk, zulm, bulbul, gumsum, durust*

**3-topshiriq. A: unlisi ishtirok etgan so'zlarning talaffuzi ustida ishlang:**

*ka:m, da:m, ma:l, pa:n, a:za:d, ba:za:r, ba:da:m, ma:l, pa:n, ab, kam, ka:m, da:m, ba:da:m, badan, ta:la:b, talab, ba:za:r, ab - a:b, badan - ba:da:n, kam - ka:m, talab - ta:la:b.*

**4-topshiriq. Qisqa unlili so'zlarni avval sekin, keyin tez talaffuz qiling:**

*manzil, kishmish, bulbul, bistar, nisbat, mumkin, mushtamil, muntazir, tandurust.*

## DIDAKTIK QISM<sup>1</sup>

**1-mashq. Quyidagi so'zlarni eshiting va takrorlang<sup>2</sup>:**



*ab, tab, ba:p, a:p, a:b, a:pa:,ba:t, pa:t, bita:, bata:, a:ta:, asa:s, ub, ba:b, ba:bat, ba:t, sa:bit, pa:p, Tab, ta:n, Ta:n, but, pita:, ta:na:, Ta:T, a:Ta:*

**2-mashq. Mashq daftaridagi 1-topshiriqni bajaring.**



<sup>1</sup> Talaba tomonidan mustaqil bajariladi.

<sup>2</sup> Topshiriq alohida diskda, MP 3 holatida ilova qilinadi.

**3-mashq. Quyida berilgan harflarni birlashtiring:**

پ+پ+پ+پ	ب+ب+ت	ب+پ+پ	آ+ب
ت+پ+پ+ت	ٹ+ٹ+ٹ	ب+ب+ب	پ+پ
ت+پ+پ+ت	پ+پ+پ	پ+ت+پ	آ+پ
پ+ت+پ+ت	ت+ت+ت	پ+ت+آ	ب+ت

**4-mashq. Yod oling:**

آپ	a:p	siz
باپ	ba:p	ota
پاتا	pata:	manzil
آب	a:b	suv
اب	ab	hozir, endi
بت	but	sanam
بات	ba:t	gap, ish

**5-mashq. Yuqorida berilgan 4-mashqdagi so'zlarning harflarini bir-biridan ajratib yozing:**

*Namuna:*

آپ ← آ+پ

***Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:***

1. Urdu tili alifbosining tarixi haqida gapirib bering.
2. Unli va undosh tovushlarni tasniflang.
3. Jadvalda berilgan harflarni uch qatordan yozing
4. Reduksiya nima?

## 2- DARS

### Ĵ Ĵ Ĵ Ĵ HARFLARI

**Mavzuning o'quv maqsadi:** urdu tilining undosh tovushlarini nutqda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *jim, chim, he, xe*

xe Ĵ	ha:e-ho'tti Ĵ	chi:m Ĵ	ji:m Ĵ
------	---------------	---------	--------

**j** tovushi inglizcha «job» so'zidagi *j* tovushiga, o'zbekcha «jon» so'zidagi *j* ga o'xshaydi. Uni talaffuz qilishda nutq a'zolari zo'riqmaydi. Masalan: *a:j, ja:, ja:n*. Yozuvda *jim* Ĵ harfi bilan ifodalanadi.

**ch** tovushi ham o'zbek tilidagi "ch" tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi. Masalan: *chup, bachat, chaT*. Yozuvda *chim* Ĵ ifodalanadi.

**he** tovushi juda yumshoq talaffuz qilinadi va u faqat arab tilidan kirgan so'zlarda uchraydi. Bu tovush nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadi: havo oqimi hech bir to'siqqa uchramay, og'iz bo'shlig'iga o'tadi. *he* tovushi so'zning oxirida oson talaffuz qilinadi, ya'ni bilinar-bilinmas aytiladi. Masalan: *ha:jat, haj, muhib*. Yozuvda Ĵ harfi bilan ifodalandi.<sup>1</sup>

**xe** tovushi til bilan bo'g'iz orqa devori birlashishidan hosil bo'ladi. Bo'g'iz torayib, til orqaga tortilishi natijasida birlashish sodir bo'ladi. Mazkur tovush o'zbek tilidagi *x* tovushiga to'liq mos keladi. Masalan: *taxt, xa:s, xubs*. Yozuvda Ĵ harfi bilan ifodalanadi.

<sup>1</sup> Ba'zan bu harfni "baRi: he"(katta he) deb ham nomlashadi (A.A. Давидова. "Учебник языка урду", Москва- 2003, 10-bet)



Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari			
		soʻz oxirida	soʻz oʻrtasida	soʻz boshida	mustaqil
<i>jim</i>	<i>j</i>	ج	ج	ج	ج
<i>chim</i>	<i>ch</i>	چ	چ	چ	چ
<i>he</i> ( <i>ha:e</i> <i>ho'tti</i> )	<i>h</i>	ه	ه	ه	ه
<i>xe</i>	<i>x</i>	خ	خ	خ	خ

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1-topshiriq. O'qing va talaffuzga e'tibor qarating:

*ja:n, ja:na:, ba:ja:, java:n, jab, jis, ji:m, jigar, xu:d, xidmat, a:xir, taxta, saxti:, puxta, cha:l, chaman, chi:ni:, chek, chor, chashma, cha:chi:, shola, ba:si:, shi:shi:, sachmuch, a:h, ra:h, ba:h, ba:dsha:h, ha:l, ha:kim, hona:, ham, hiran, hisa:b, hi:ra:, shahi:d, ma:hol*

### 2-topshiriq. xe va he undoshli soʻzlarning talaffuziga e'tibor bering:

*xa:l - ha:l*                      *a:xir - a:hu:*  
*sha:x - sha:h*                *buxa:r - baha:r*  
*ham - xam*                    *xeira:t - heirat*

### 3-topshiriq. Ifodali o'qishga harakat qiling:

*sihat, taxta, baha:r, buxa:r, ham, hiran, xidmat, sahi:, saxi:, xat, hida:yat, hisa:b, daraxt, saxt, shahi:d.*

## DIDAKTIK QISM

1-mashq. Quyidagi soʻzlarni eshiting va takrorlang:



*jab, a:j, ja:ta:, ba:ja:, ta:j, ja:, baj, jaj, chup, ab ja:, chaT, chipchipa:, hija:b, Ta:p, Ta:T, bachat, sa:bit, ha:jat, haba:b, xaba:sat, xubs, taxt, bajta:, chipta:, bajaT.*

2-mashq. Mashq daftaridagi 2-topshiriqni bajaring.



3-mashq. Harflarni birlashtirib yozing:

ت+ت+ت	ج+ج	ج+ج+ج	ج+ج+ج	ج+ب
ت+ت+ت+ج	ت+ت+ج+ب	ت+ج+ت	ت+ج+ت	ج+ب+ج
ب+ت+ب+ج	ت+ت+ج	ب+ج+ت	ج+پ	ت+ج

4-mashq. Yod oling:

آج	a:j	bugun
تاج	ta:j	toj
باجا	ba:ja:	musiqiy asbob
جج	jaj	sudya
چچت	bachat	tejam, iqtisod
چچچاپ	chupcha:p	jimgina, jim
حج	haj	haj

5-mashq. Yuqorida berilgan 4-mashqdagi soʻzlarning harflarini bir-biridan ajratib yozing:

Namuna:

آج ← آ ج

***Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:***

1. *he* va *xe* tovushlarining talaffuzdagi farqini ayting.
2. O'tilgan harflar ishtokida bir bo'g'inli misollar tuzing.
3. 2-jadvalda berilgan harflarni uch qatordan yozing.

### 3- DARS

#### ڌڌ/ڌڌ, HARFLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: urdu tilidagi ikki ko'rinishli harflarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: *dol, Da, zol, re, Ra, ze, Je*

Je ڌ	ze ڌ	Ra ڌ	re ڌ	zol ڌ	Da ڌ	dol ڌ
------	------	------	------	-------	------	-------

*d, z, r* tovushlari o'zbek tili undoshlariga o'xshab talaffuz qilinadi, ya'ni juda qattiq va yumshoq talaffuz qilinmaydi. Masalan: *da:da:, da:di:, kar, par, ka:g'az, ta:za*. Yozuvda ular ikki ko'rinishga ega.

*D, R* serebral tovushlari ikki ko'rinishli bo'lib quyidagicha talaffuz qilinadi: til ko'tarilib, old tanglayning chuqurchasiga tegadi. Chuqurchaning orqa devoriga salgina tegadi-yu, darhol uzoqlashadi. Masalan: *saRak, baRa:, Da:kTar, Da:irekTar, kaTna:, muRna:, paRna:.*



*R* tovushining hosil bo'lishi



*T, D* tovushlarining hosil bo'lishi

*J* jarangli undoshi rus tilidagi *ж* tovushiga yaqin, lekin biroz yumshoqroq talaffuz qilinadi. Bu undoshli so'zlar urdu tilida kam, asosan o'zlashma so'zlarda (*Ja:J, Teli:vi:Jan*) uchraydi.

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		soʻz oxirida	soʻz oʻrtasida	soʻz boshida	mustaqil	
<i>dol</i>	<i>d</i>	ʌ	ʌ	ɔ	ɔ	
<i>Da</i>	<i>D</i>	<sup>ʌ</sup> ʌ	<sup>ʌ</sup> ʌ	<sup>ʌ</sup> ɔ	<sup>ʌ</sup> ɔ	ɔ
<i>zol</i>	<i>z</i>	ʌ	ʌ	ɔ	ɔ	
<i>re</i>	<i>r</i>	ʌ	ʌ	ɔ	ɔ	
<i>Ra</i>	<i>R</i>	<sup>ʌ</sup> ʌ	<sup>ʌ</sup> ʌ	<sup>ʌ</sup> ɔ	<sup>ʌ</sup> ɔ	ɔ
<i>ze</i>	<i>z</i>	ʌ	ʌ	ɔ	ɔ	
<i>Je</i>	<i>J</i>	<sup>ʌ</sup> ʌ	<sup>ʌ</sup> ʌ	<sup>ʌ</sup> ɔ	<sup>ʌ</sup> ɔ	

Ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlarda *T* va *D* serebral undoshlaridan oldin «*r*» undoshi serebral boʻlib talaffuz etiladi. Masalan: *parTi*: - *paRTi*: yoki *borDing* - *boRDing* va h.k.

### AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

#### 1-topshiriq. Oʻqing va talaffuzga eʼtibor qaratib:

*da:di*:, *dum*, *du:na*:, *dena*:, *di:di*:, *kar*, *par*, *ravi*:, *roz*, *ret*, *safar*, *bartar*, *ra:tri*:, *shari:r*, *ka:gʻaz*, *markazi*, *ta:za*, *jiguli*:, *paRTi*:, *moTa*:  
*Da:l*, *DaT*, *DaTna*:, *saRak*, *baRa*:, *moTar*, *Da:kTar*, *TrekTar*,  
*Da:irekTar*, *kaTna*:, *Tu:Tna*:, *toRna*:, *muRna*:, *paRna*:

2-topshiriq. Undoshlarning talaffuzidagi farqiga e'tibor berib, taqqoslab o'qing:

ت ↔ ت      ت ↔ ت

ب ↔ ب      ب ↔ ب

ج ↔ ج      ج ↔ ج

3-topshiriq. Ko'chirib yozing:

ada:      ادا = ا + د + ا      a+d+a:

ra:z      را = ر + ا + ز      r+a:+z

zara:      زرا = ز + ا + ر + ا      z+a+r+a:

a:za:d      ازا = ا + ز + ا + د      a:+z+a:+d

## DIDAKTIK QISM

1-mashq. Quyidagi so'zlarni eshiting va takrorlang:



da:d, da:da, da:ra:, rux, uRta, roRa:, ta:r, ra:t,  
axba:r, hara:rat, ba:za:r, ja:Ra:, paRa:, baRa:,  
sa:bit, ta:j, a:xir, buxa:r, zar, zard, Ja:J, Teli:vi:jan

2-mashq. Mashq daftaridagi 3-topshiriqni bajaring.

3-mashq. Harflarni birlashtirib urduda yozing:



d+a:+d      x+b+r.      b+R+a:      a:+x+r

p+t+a:      r+x      ch+p+T+a:      ch+a:+r

j+a:+j      r+a:+t      ch+r+b      D+r+t+a:

#### 4-mashq. Yod oling:

بڑا	baRa:	katta
برا	bura:	yomon
خبر	xabar	yangilik, xabar, ma'lumot
اخبار	axba:r	gazeta
رات	ra:t	tun
آزاد	a:za:d	ozod, mustaqil
بڑا بت	baRa: but	katta but
بڑا بازار	baRa baza:r	katta bozor

5-mashq. Yuqorida berilgan 4-mashqdagi so'zlarning harflarini bir-biridan ajratib yozing. *Namuna:*

بڑا ← بت

**Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:**

1. Urdu tilida qanday ikki ko'rinishli harflar mavjud?
2. 3-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.
3. Serebral harflar talaffuzida nutq apparatida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

#### 4- DARS

### س ش اص ض HARFLARI

**Mavzuning o'quv maqsadi:** urdu tilidagi to'rt ko'rinishli harflarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *si:n, shi:n, sua:d, zua:d*

zua:d ض   sua:d ص   shi:n ش   si:n س

s, sh, z tovushlari o'zbek tili undoshlariga o'xshab, talaffuz qilinadi. Masalan: *sa:s, sa:t, sab, shab, sha:z, sa:zish, sadar, ha:zir, sa:hab*. Yozuvda ular to'rt ko'rinishga ega.

4-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	mustaqil	
<i>si:n</i>	s	س	س	س	س	س
<i>shi:n</i>	sh	ش	ش	ش	ش	
<i>sua:d</i>	s	ص	ص	ص	ص	ص
<i>zua:d</i>	z	ض	ض	ض	ض	

#### AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

**1-topshiriq.** O'qing va talaffuzga e'tibor qarating:

*sab, sa:t, seb, soz, si:m, si:sa:, sha:m, shola:, shi:shi:, koshish, kishmtsh, ka'shi:, sa:bun, sa:hab, nabz, nisha:n, sach, shaxs, sabab*

**2-topshiriq.** O'tilgan undoshlarga *alif* qo'shib yozib chiqing:

*Namuna:* b+a=با



3-topshiriq. Namunada berilganidek soʻzlarni ajratib yozing:

Namuna: حشر = حشر

= سرحد

= اچار

= ارشاد

= آواز

4-topshiriq. Harflarni birlashtirib yozing:

= س س ر

= ش خ ص

= س ر ا خ

= ص و ا

= ح ص د

= ح ج ر

## DIDAKTIK QISM

1-mashq. Quyidagi soʻzlarni eshiting va takrorlang:



sa:t, sab, xara:sh, xarch, daraxt, za:r, za:rb, sa:hab, sach, ha:zir, saxt, xuda:, sa:da:, sada:, juda:, josh, shara:b, shaba:b, adab, shab, sa:zish, ta:sh.

2-mashq. Mashq daftaridagi 4-topshiriqni bajaring



3-mashq. Urduda yozing:

ba:rish, shab, ta:sh, sha:x, shara:rat, dard, sha:da:b, shara:b, adab, xara:sh, shabd, xara:b

4-mashq. Yod oling:

صدر

sadar

prezident

حاضر

ha:zir

mavjud

صاحب

sa:hab

janob, sohib

استاد

usta:d

oʻqituvchi, ustoz

سات اخبار

sa:t axba:r

yettita gazeta

بڑا درخت      baRa: daraxt      katta daraxt

سخت بارش      saxt ba:rish      kuchli yomg'ir

**5-mashq.** Yuqorida berilgan mashqdagi soʻzlarning harflarini bir-biridan ajratib yozing. *Namuna:*

صدر ← ص + د + ر

***Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:***

1. s tovushini beruvchi harflarni yozing.
2. 4-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.

## 5-DARS

### ع/ط HARFLARI

**Mavzuning o'quv maqsadi:** urdu tilidagi to'rt ko'rinishli harflarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *toy, zoy, ayn, g'ayn*

g'ayn ع ayn ط zoy ط toy ط

t, z, g' tovushlari o'zbek tili undoshlariga o'xshab, talaffuz qilinadi. Masalan: *xat, tulba, xatra, za:lim, zulm, g'urbat, g'ar*. Yozuvda ular to'rt ko'rinishga ega.

5-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		mustaqil	so'z boshida	so'z o'rtasida	so'z oxirida	
<i>toy</i>	t	ط	ط	ط	ط	ط
<i>zoy</i>	z	ط	ط	ط	ط	
<i>ayn</i>	a,i,u,a:,e,o	ع	ع	ع	ع	ع
<i>g'ayn</i>	g'	ع	ع	ع	ع	

*Ayn* harfi to'rt ko'rinishga ega bo'lib, bir nechta tovushni bildiradi: so'z boshida kelganda *ayn* "a" (arab-ب), "i" (itr-ع), "u" (umr-ف), "o" (ohda:-و);

soʻz oʻrtasida kelganda ayn "a:" (ba:d-بد), "e" (sher-شعر), "o" (shola:

soʻz oxirida esa "a:" (jama:-جم), "e" (va:qe-واج), "o" (tavaqqo-تَوَقَّع);

soʻz boshida alif bilan kelganda "ə" tovushini beradi (atabar-اِتَبَار ,

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1-topshiriq. Oʻqing va talaffuzga eʼtibor qaratng:

ilm, a:dat, g'a:r, ti:g', faqat, lavz, ilm, afg'an, afaa:l, g'alat, jamaa:t, g'am, shug'ul, lug'at, aa:lam.

### 2-topshiriq. Harflarni qoʻshib yozib chiqing:

ب ا ع ا ل غ ا ر ب ا ع ز ت ا د ا ل غ ا ط ا ر ا ل غ ر ب ت

3-topshiriq. Oʻtilgan undosh harflarni namunada berilganidek birlashtirib yozing. Namuna:

ب+ب+ب بيب  
غ+غ+غ غغغ

## DIDAKTIK QISM

### 1-mashq. Quyidagi soʻzlarni eshiting va takrorlang:



ajab, shola, əhsa:s, əza:z, g'ap, g'iza, chira:g', shart, a:dat, ba:z, arab, ba:g', xat, ta:da:d, ba:d, itr, g'urbat

### 2-mashq. Mashq daftaridagi 5-topshiriqni bajaring:

### 3-mashq. Harflarni birlashtirib yozing:



ب+ط+خ ط+ر+ح ب+ع+د د+ر+ت+ت+ا غ+ر+ب+ت ت+س+ر+ر+س  
ب+ا+غ ا+ح+ط ع+د+ر ع+ط+ر ع+ر+ض ج+ز+ب  
ش+خ+س س+ج+س+ر+ت ت+ج+ر+ر+غ د+ع+ا

**4-mashq. Yod oling:**

عرب	arab	arab
عادت	a:dat	odat
سبز باغ	sabz ba:g'	yashil bog'
بڑا باغ	baRa: ba:g'	katta bog'
عطر	itr	atir
آداب عرض	a:da:b arz	salom

**5-mashq. Yuqorida berilgan mashqdagi so'zlarning harflarini bir-biridan ajratib yozing: Namuna:**

عرب ← ع+ر+ب

**Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:**

1. *ayn* harfi qanday tovushlarni bildiradi?
2. 5-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.

## 6- DARS

### ف ق ک گ HARFLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: urdu tilidagi to'rt ko'rinishli harflarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

Tuyanch so'z va iboralar: *fe, qof, kof, gof*

gof گ	kof ک	qof ق	fe ف
-------	-------	-------	------

*f, q, k, g* tovushlari o'zbek tili undoshlariga o'xshab, talaffuz qilinadi. Misalan: *farm, farz, harf, qarz, qafqa:z, ka:r, askar, karta:, ga:jar, ga:ta:, ta:ga:*. Yozuvda ular to'rt ko'rinishga ega.

6-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	mustaqil	
<i>fe</i>	<i>f</i>	ف	ف	ف	ف	ف
<i>qof</i>	<i>q</i>	ق	ق	ق	ق	ق
<i>kof</i>	<i>k</i>	ک	ک	ک	ک	ک
<i>gof</i>	<i>g</i>	گ	گ	گ	گ	گ

*Kof* va *gof* harflariga *alif* qo'shilganda quyidagicha yoziladi:

ک = +ک

گ = +گ

## Urg'u

1. Urdu tilida urg'u odatda oxirgi bo'g'inga tushadi. Masalan:

*zabardast* – kuchli

*na:ka:ra* – yaramaydigan

*ka:ra:mad* – foydali

*bha:lu* – ayiq

*i:ma:nda:ri* – adl-insof

2. Undosh bilan tugaydigan so'zlarda, agar oxirgi bo'g'inda qisqa unli, undan oldingi bo'g'inda esa cho'ziq unli bo'lsa, u holda urg'u oxirgi bo'g'inga ham, undan oldingi bo'g'inga ham tushishi mumkin.

Masalan:

*sha:ir* yoki *sha:ir* – shoir

*huku:mat* yoki *huku:mat* – hukumat

Oxiridan bitta oldingi bo'g'inda cho'ziq unli bo'lsa, unli bilan tugaydigan so'zlarda ham xuddi shunday bo'ladi. Masalan:

*ma:mta*: yoki *ma:mta*: – ona mehri

*bha:ri*: yoki *bha:ri*: – og'ir

3. Takror so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Masalan:

*ka:la:-ka:la*: – qop-qora

*a:mne-sa:mne* – ro'pama-ro'para

4. Fe'l shakllarida urg'u o'zakka tushadi, ikki bo'g'inli o'zakda esa ikkinchi bo'g'inga tushadi. Masalan:

*nikal-na*: – chiqmoq

*nik-lo* – chiq

*a:zma:-na*: – sinamoq

*a:zma:-i:ye* – sinang

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. O'qing va talaffuzga e'tibor qarating:

*ka:na*:, *kona*:, *kela*:, *mungkin*, *ku:dna*:, *namki:n*, *gap*, *ga:na*:, *ginti*:,  
*gi:ta*:, *qa:f*, *qalam*, *qamar*, *quli*:, *aql*, *naql*, *qismat*, *qi:mat*, *raqi:b*,  
*ba:qi*:, *qa:f*, *g'a:r*, *qadam*, *g'araz*, *xabar*, *quli*:, *g'uba:r*, *ma:qu:l*,  
*fursat*, *fa:rm*, *harf*, *faqat*.

2-topshiriq. Ovoz chiqarib o‘qing va ko‘chirib yozing:

سات، انكار، ثابِت، اثر، پاس، طاقت، سبز، بعض، قاز، قرض، قفقاز، ضبط، زار، سزا، صاف، گز، سزك، فرصت فرحت، كاغذ، كتاب

3-topshiriq. 2-topshiriqda berilgan so‘zlarni transkripsiyasini yozing va urg‘u qo‘ying. Namuna:

سات [sa:t]

## DIDAKTIK QISM

1-mashq. Quyidagi so‘zlarni eshiting va takrorlang:



fa:sh, farsh, qa:z, barf, qarz, ka:r, ka:rD, ira:q, qata:r, a:dat, xara:sh, Da:k, ga:jar, ga:rD, garaj, girja:, gird, gaRbaR, ka:sht, ka:T, qara:r, qurq, daftar.

2-mashq. Mashq daftaridagi 6-topshiriqni bajaring.



3-mashq. Urdu tilida yozing (“ع” ni ishlatmasdan):

ka:r, kaRa:, ka:rD, jaga:ta:, jug, qurb, qadar, dard, ga:jar, girja:, qafqa:z, qad, Da:k, farq, daf, ba:rish, qurq, fa:rig‘, harf.

4-mashq. Yod oling:

بَرَف	barf	qor
صاف	sa:f	toza
كار	ka:r	avtomobil
دفتر	daftar	idora, bo‘lim, ofis
حَرْف	harf	harf
كَلْب	kita:b	kitob



سَرَک saRak ko 'cha; yo'1

خُداحافظ xuda: ha:fiz xayr, ko'rishguncha

**5-mashq.** Yuqorida berilgan mashqdagi so'zlarning harflarini bir-biridan ajratib yozing: *Namuna:*

بَرَف ← ب + ر + ف

***Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:***

1. Kof va gof harflariga alif qo'shilishini ikki qatordan yozing.
2. Urg'u haqida ma'lumot bering.
3. 6-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.

## 7-DARS

### ل HARFLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: urdu tilidagi to'rt ko'rinishli harflarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: *lom, mi:m*

mi:m م lom ل

*l, m* tovushlari o'zbek tili undoshlariga o'xshab talaffuz qilinadi. Masalan: *gul, g'alat, gula:b, ma:lik, mumta:z, film*. Yozuvda ular to'rt ko'rinishga ega.

7-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	mustaqil	
<i>lom</i>	<i>l</i>	ل	ل	ل	ل	ل
<i>mi:m</i>	<i>m</i>	م	م	م	م	م

*lom* harfiga *alif* qo'shiganda, k+l+a:, g+l+a: idodasi quyidagicha yoziladi:

لا = ل + ا

کلا = ک + ل + ا

گلا = گ + ل + ا

## E'roblar

*Tashdid* ( ّ ) – harfning ustiga qo'yiladigan grafik belgi bo'lib, undosh tovushning ikkitaligini bildiradi. Masalan:

مذمة *mz.* – "madda" belgisi

كفي – xom, pishmagan

مستتبت *ms.* – niyat, mo'ljal

*Tanvin* ( َ ) – qo'sh zabar shaklidagi belgi bo'lib, arab tilidan o'zlashgan ravishlarning oxiriga qo'yiladi va alif harfi bilan birga «-an» deb o'qiladi. Masalan:

مثلاً –masalan

جبراً –jabran

تقريباً –taxminan

*Sukun* ( ° ) – undosh harfning ustiga qo'yiladi hamda bu holat ikki undosh orasida unli yo'qligini anglatadi. Masalan:

زرر –sariq

درر –dard

Urdu tilida ayrim e'roblarning yozuvda ifodalanishi shart emas, biroq *madda*, *tanvin* va *hamza*<sup>1</sup> e'roblarini qo'yish shart.

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1-topshiriq. O'qing va talaffuzga e'tibor qaring:

*bachcha, muddat, billi, sachchi, taqri:ban, matn, quvvat, mard, dost, farsh, la:l, ka:la:, tandurust, gla:s, kla:s.*

### 2-topshiriq. Yozing va o'qing:

تلاش مثلاً، قسط، بحث، سخت، اڈا، عزت کتا، ابا، تلفظ، لطف

<sup>1</sup> *Madda* va *hamza* belgisi xususida 11-darsda to'liq ma'lumot beriladi.

## DIDAKTIK QISM

### 1-mashq. Quyidagi soʻzlarni eshiting va takrorlang:



la:l, ma:l, laRka:, lifT, mulk, ta:lib ilm, gra:mar, bil, mutarjim, sala:m, safar, ma:la:, umr, milkar, imla:;, sa:l, qalam, tala:q, ma:lik, ma:rch, imda:d, maza:q, muha:fiz

### 2-mashq. Mashq daftaridagi 7-topshiriqni bajaring.



### 3-mashq. Urdu tilida yozing (ع ishtirokisiz):

ma:l, ma:la:, mulk, vil, lifT, miba:rak, qalam, bil, kachcha:, pakka:, milkar, dil, kama:l, kamal, gula:b

### 4-mashq. Yod oling:

علم	ilm	bilim, ilm
طالب علم	ta:lib ilm	talaba
گرامر	gra:mar	grammatika
تالافظ	talaffuz	talaffuz
علماء	imla:	diktant
عزت	izzat	hurmat
آزاد مملکت	a:za:d mulk	ozod mamlakat
بڑا مملکت	baRa mulk	katta mamlakat
سفر مبارک	safar muba:rak	oq yoʻl!
کام	ka:m	ish
مترجم کا کام	mutarjim ka: ka:m	tarjimonning ishi

### Mustaqil taʼlim uchun savol va topshiriqlar:

1. Lom harfiga alif qoʻshilishini mashq qiling.
2. Eʼroblar haqida maʼlumot bering.
3. 7-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.

## 8- DARS

### ن HARFLARI

**Mavzuning o'quv maqsadi:** urdu tilidagi to'rt ko'rinishli harflarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *nu:n, nu:ne-g'una:*

**nu:ne-g'una: ن nu:n ن**

*n* tovushi o'zbek tilidagi *n* undoshiga o'xshab talaffuz qilinadi. Masalan: *na:l, na:m, zaba:n, na:mumkin*. Yozuvda to'rt ko'rinishga ega.

*N* tovushi o'zbek tilida mavzud emas. Bu tovush yordamida burunlashgan unilar hosil qilinadi. Yozuvda *nu:ne-g'una:* ning uch shakli mavjud.

8-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	mustaqil	
<i>nu:n</i>	<i>n</i>	ن	ن	ن	ن	ن
<i>nu:n-g'una:</i>	<i>N</i>	ن	ن	ن	ن	ن

### Burunlashgan unli tovushlarning talaffuzi va yozuvda ifodalanishi

*aN, a:N, iN, i:N* va boshqa burunlashgan tovushlar *a, a:, i, i:* unilar singari talaffuz qilinadi, ammo bu tovushlarni talaffuz qilishda tilning orqa tomoni salgina ko'tarilib, yumshoq tanglay o'simtasi pasayadi. Natijada og'iz bo'shlig'iga keladigan havoning yo'li biroz to'siladi va shu tufayli sof unlini talaffuz qilishga qaraganda, bunda burun orqali

havo birmuncha ko'proq o'tadi. Sof unlini talaffuz qilaturib, tomoqni biroz toraytirgan holda bo'g'izdan chiqayotgan havo oqimini yuqoriga qarab yo'naltirishga harakat qilinsa, burunlashgan unli hosil bo'lishi mumkin.

Urdu tilidagi 10 ta sof unlining burunlashgan varianti bor, ular quyidagilar<sup>1</sup>:

<i>a</i>	<i>i</i>	<i>u</i>	<i>a:</i>	<i>i:</i>	<i>u:</i>	<i>e</i>	<i>o</i>	<i>a<sup>o</sup></i>	<i>a<sup>y</sup></i>
<i>aN</i> ,	<i>iN</i> ,	<i>uN</i>	<i>a:N</i>	<i>i:N</i>	<i>u:N</i>	<i>eN</i>	<i>oN</i>	<i>a<sup>o</sup>N</i>	<i>a<sup>y</sup>N</i>

Burunlashgan unli tovushlar yozuvda sof unlilar kabi ifodalanadi. Faqat ularga so'z oxirida *u*, so'z o'rtasida esa *u* harfi qo'shiladi. So'z o'rtasida ba'zan *u* harfining ustiga hilol e'robi qo'yiladi. Masalan:

*ka:NTa:*      ک ← ++u+++ک

*ba:Ns*        ب ← ++u+s

*ma:N*         م ← ++u

*pa:Nch*      پ ← ++u+چ

### *n* tovushining assimilatsiyasi

Urdu tilida «*n*» dan boshqa undosh tovushlar assimilatsiyaga uchramaydi, barcha holatlarda o'z xususiyatini o'zgartirmay aniq talaffuz qilinadi. Jarangli undoshlar jarangsizdan oldin jarangsiz bo'lib qolmaydi, jarangsiz undoshlar esa jarangli bo'lib qolmaydi. Misol uchun, «akbar, ibtida, devta» so'zlarida «agbar, iptida, defta» tarzida talaffuz qilinmaydi. *n* undoshi «*b*» va «*p*» dan oldin «*m*» ga aylanadi. Masalan: *kunba:* - *kumba:*, *sa:np* - *sa:mp*. Lekin «*m*» undoshidan oldin «*n*» kelsa, u saqlanib qoladi. Masalan: «anmol» va «denmark» so'zlaridagi kabi.

<sup>1</sup> Oxiridagi ikki unli diftong bo'lib ular haqida 9,11-darslarda mufassal ma'lumot beriladi.

*B* va *M* dan tashqari boshqa undoshlardan oldin «*n*» tovushi saqlanib qoladi, ammo uning hosil bo'lish o'rni biroz o'zgaradi. U o'zidan keyin kelayotgan undosh tovush qayerda bo'lsa, o'sha yerda hosil bo'ladi hamda ma'lum darajada burun orqali talaffuz qilinadi. *N* tovushining qay darajada burun orqali talaffuz qilinishi o'zidan keyin kelayotgan undoshga bog'liq bo'ladi. *T* va *D* tish oldi va *ch*, *sh*, *j* til o'rta tovushlaridan oldin «*n*» tovushi bilinar-bilinmas burun orqali, *k*, *g*, *kh*, *gh* til orqa va serebral tovushlardan oldin esa «*n*» tovushi aniq burun orqali talaffuz etiladi. Traskripsiyada burun orqali talaffuz qilinadigan «*n*» tovushi alohida belgi bilan ifodalanmaydi. Masalan: *sunta*., *zinda*, *buland*, *kandha*., *i:nch*, *injan*, *ra:njha*., *jhanjhaT*, *rang*, *jangla*., *pankha*., *a:ngan*, *anDa*, *ThanDa*., *ka:nta*., *unDelna*..

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1-topshiriq. O'qing va talaffuzga e'tibor qaring:

*a:N*, *oN*, *eN*, *i:N*, *u:N*, *ma:N*, *mi:N*, *mu:N*, *ma:N*, *da:ya:N*, *laRkiya:N*, *a:Nchal*, *a:Nsu:meN*, *baseN*, *a:yeN*, *soyeN*, *mezeN*, *peNsleN*, *lu:N*, *du:N*, *karu:N*, *karu:Nga*., *u:Ncha*., *i:N*, *ki:N*, *di:N*, *boli:N*, *a:yi:N*, *bata:yi:N*, *haNsna*., *uNgli*., *kuNva:N*, *kuNveN*, *pahu:Nchna*., *na:na*., *na:ni*., *nek*, *nok*, *ni:m*, *ni:na*., *nu:r* .

### 2-topshiriq. Yozing va o'qing:

ن، نام، لانا، نشان، انسان، کلانا، ناغ، تاک، تاته ناغ، نیش، تالا

### 3-topshiriq. Talaffuz qiling:

*sunta*., *zinda*, *buland*, *i:nch*, *injan*, *rang*, *jangla*., *a:ngan*, *anDa*, *ka:nta*., *unDelna*..

## DIDAKTIK QISM

### 1-mashq. Quyidagi so'zlarni eshiting va takrorlang:



*pura:na*., *sa:ma:n*, *nisa:r*, *narm*, *la:na*., *laga:na*., *Pa:kista:n*, *Ta:shqand*, *ma:N*, *jaNg*, *ma:Ng*, *ba:Ns*, *taNg*, *cha:Nd*, *insa:n*

2-mashq. Mashq daftaridagi 8-topshiriqni bajaring.



3-mashq. Urdu tilida yozing( ishtirokisiz):

na m, na:k, na:p, sharma:na:, ja:gna:, na:chna, gra:mar, din, narm,  
minaT, jaNg, Ta:Ng, cha:Nd, piNjra:.

4-mashq. Yod oling:

پاکستان جانا	pa:kista:n ja:na:	Pokistonga bormoq
زبان جانا	zaba:n ja:nna:	til bilmoq
نام جانا	na:m ja:nna:	ism, nom bilmoq
سڑک پر چلنا	saRak par chalna:	ko'chada yurmoq
کتاب لانا	kita:b la:na:	kitob olib kelmoq

**Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:**

1. Burunlashgan unililar haqida ma'lumot bering.
2. 8-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.
3. N tovishining assimilatsiyasi nima?



## 9-DARS

### ، HARFI

**Mavzuning o'quv maqsadi:** urdu tilidagi ikki ko'rinishli harfni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

**Tayanich so'z va iboralar:** *vov*

VOV ،

*v* undosh tovushi o'zbek tilidagi *v* undoshiga o'xshab talaffuz qilinadi. Masalan: *vatan, va:lid, va:ris*. Yozuvda ikki ko'rinishga ega. Biroq bu harf yarim unli ham hisoblanib bir necha tovushni bildiradi. *v* yarim unlisi juda oson talaffuz qilinadi. Uni talaffuz qilishda lablar biroz kengayadi hamda tishga tegmaydi. So'z oxirida *v* tovushi *o'* ga o'xshab ketadi. Masalan: *dev, sev, na:v, bacha:v, va:v*.

*Vov* harfi *u:* va *o* tovushini ham bildiradi. *u:* tovushi cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *u:n, nu:r, du:r, ru:s, su:rat, isku:l, xu:bru:, suku:n, su:rat, dur, du:r, un, u:n, tum, tu:r*.

*O* tovushi cho'ziq talaffuz qilinadi. Uni talaffuz qilishda lablar cho'chchayadi va yumaloqlashadi. Unga «*o'ng, o'yla, o'yin*» dagi «*o'*» mos keladi. Masalan: *zor, shor, roz, nok, mor, dosto, bolo, roz-baroz*.

*A<sup>o</sup>* diftongi<sup>1</sup> – bilinar-bilinmas «*o'*» ga aylanadigan cho'ziq unli tovushdir. Uning asosiy qismi «*a*» bilan «*o*» oralig'idagi tovushni bildiradi. Uni talaffuz qilishda lablar biroz kengayadi, til taranglashmaydi va yuqori ko'tarilmaydi. Masalan: *a<sup>o</sup>r, a<sup>o</sup>rat, na<sup>o</sup>, sa<sup>o</sup>, da<sup>o</sup>r, fa<sup>o</sup>ran, ma<sup>o</sup>sam, pa<sup>o</sup>da:, na<sup>o</sup>bat, a<sup>o</sup>la:d, a<sup>o</sup>za:r, da<sup>o</sup>ra:n, sa<sup>o</sup>da:*

So'z boshida *u:,o* va *a<sup>o</sup>* diftongi *alif+vov* birikmasi yordamida ifodalanadi:

*u:n-ون*    *ola-ول*    *a<sup>o</sup>r-ار*

<sup>1</sup> Diftong haqida ma'lumot glossariyda berilgan.

Yodda saqlang, quyidagi ikki ko‘rinishli harflar o‘zidan keyingi harflar bilan birlashmaydi: و-ؤ-ر-ز-ژ-و

9-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	mustaqil	
vov	v, u:, o, a°	و	و	و	و	و

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

**1-topshiriq. O‘qing va talaffuzga e‘tibor qaring:**

*dost, qa°m, fon, karo, isku:l, tufa:n, sava:l, foTo, bolu:n, karu:n, ru:s*

**2-topshiriq. Yozing va o‘qing:**

کون، نو، دوات، دود، گوشت، درق، درزش

**3-topshiriq. Undoshlarga *alif* va *vov* harflarini qo‘shib yozib chiqing.**

## DIDAKTIK QISM

**1-mashq. Quyidagi so‘zlarni eshiting va takrorlang:**



*va:ris, vatan, dava:°, foTo, ju:n, ju:na:, a°rat, va:lid, sava:l, urdu:, u.par, os, a°r, pu.ra:, log, xu:b, ka°n, karu:N, u:Ncha, bolu:N, la°Tna, da°ra:n, na°java:n, ma°qa:, ma°ju:d, tu:fa:n, su:raj*

**2-mashq. Mashq daftaridagi 9-topshiriqni bajaring.**



**3-mashq. Ovoz chiqarib o‘qing va yozing:**

یولنا، طوطا، سونا، وطن، کون، کونسا، روس، آپ کا نام، ان کا نام، دونوں، وزن، پتلون، جاؤں، کروں، کواکولا، اس کو دادو، دانت خوب صاف کرو، بڑوں کو سلام کرو، ان کا ادب کرو، آج اردو اخبار لاؤ، دوست کو سلام کرو، آج کا کام آج کرلو، دوست کو دعوت دو، سدا کو شش کرو، سورج سے سب کو اجالا۔

#### 4-mashq. Yod oling:

وطن	vatan	vatan
روس	ru:s	Rossiya
ماسكو	ma:sko	Moskva
دوست	dost	do'st
قوم	qɑ'm	millat, xalq
اسكول	isku:l	maktab
آپ كانام	a:p ka: na:m	Sizning ismingiz
اردو اخبار لاؤ	urdu: axba:r lao	urducha gazeta olib kel(ing)
آج كا كام آج كر لو	a:j ka: ka:m a:j kar lo	bugungi ishni bugun qil(ing)
دوست كو فون كر و	dost ko fon karo	do'stga qo'ng'iroq qil(ing)

#### *Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:*

1. Vov harfi haqida ma'lumot bering.
2. 9-darsda berilgan harflarni uch qatordan yozing.

## 10- DARS

### • HARFI

Mavzuning o'quv maqsadi: urdu tilidagi to'rt ko'rinishli harfni umalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: *hoj-havvaz (he)*<sup>1</sup>, *nafasli tovushlar*

#### hoj-havvaz •

*h* tovushi nafas chiqarishning o'zi bilan talaffuz qilinadi: havo oqimi hech bir to'siqqa uchramay, og'iz bo'shlig'iga o'tadi. *h* tovushi so'zning oxirida oson talaffuz qilinadi, ya'ni bilinar-bilinmas aytiladi. *h* undosh tovushi o'zbek tilidagi *h* ga mos keladi. Masalan: *a:h, ra:h, ba:h, ba:dsha:h, sha:hra:h, ha:l, ha:kim, hona:, ham, sahar, hiran, hisa:b, hi:ra:, shahi:d, ha'rat, ha'sla, ma:hol.*

Tovush xususiyatidan hamda so'zdagi o'rnidan kelib chiqib *he* harfi turli ko'rinishlarga ega.

10-jadval

Harf nomi	Harf ifodalagan tovush	Harfning shakllari				
		so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	mustaqil	
<i>hoj-havvaz (he)</i>	<i>h, a:</i>					
<i>do chash mi he</i>	<i>h</i>					

<sup>1</sup> Ba'zan bu harfni "ch<sup>h</sup>oTi: he" (kichkina he) deb atashadi (qarang: A.A. Давидова. "Учебник языка урду", Москва- 2003, 28-bet)

• harfi boshqa harflar bilan qo‘shilib yozilganda, ya’ni keyingi harf bilan qo‘shilganda, oldingi harf bilan qo‘shilganda, shuningdek, ikki tomondan qo‘shilganda quyidagi shaklga ega bo‘ladi. Masalan:

هرا	<i>hara</i> : –yashil	دواخانە	<i>dava:xa:na</i> : –dorixonona
هوا	<i>hava</i> : –havo, shamol	شهر	<i>shehr</i> –shahar
وچە	<i>vajah</i> –sabab	ھارا	<i>hama:ra</i> : –bizning

• harfi **ه** harflaridan oldin kelganda quyidagi shaklda bo‘ladi:

ھال	<i>ha:l</i> –zal	ھايەت	<i>hida:yat</i> –ko‘rsatma
ھال	<i>hal</i> –omoch	ھىلنا	<i>hilna</i> : –qimirlamoq
ھزار	<i>hazar</i> –ming		

Boshqa harflardan oldin kelganda esa ushbu shaklda bo‘ladi:

ھام	<i>ham</i> –yashil	ھاتانا	<i>haTa:na</i> : –uzoqlashtirmoq
ھوا	<i>hava</i> : –havo, shamol	ھانسنا	<i>haNsna</i> –kulmoq
ھunar	<i>hunar</i> –hunar	خوھاش	<i>xa:hish</i> –istak, xohish

*h* undoshidan oldin «a» yopiq qisqa unlisi kelib, undan keyin undosh tovush kelganda, qisqa «a» o‘rniga birmuncha ochiq va cho‘ziq «e» talaffuz qilinadi. Ushbu tovush ma’lum darajada o‘zbek tilidagi «e» ga o‘xshab ketadi. *e* ni talaffuz qilishda tilning orqa qismi pasayadi hamda lablar kengayadi. Masalan: *ehmad, rehmat, kehna*:

*hoy-havvaz(he)* harfi arab-fors tillaridan kirgan o‘zlashma so‘zlarda, ya’ni so‘z oxiridagi undoshdan keyin kelsa unli hisoblanib *a*: deb o‘qiladi. Masalan: درجہ، خطرہ، ارادہ، جملہ

Fors tilidan kirgan ayrim so‘zlarda *i* tovushini bildiradi: کہ، بلکہ

*h* tovushli so‘zlarni talaffuz qilganda, ushbu tovush nafas chiqarishning o‘zi bilan talaffuz qilinishini yodda tuting.

## Nafasli tovushlar

Urdu tilida 14 ta nafasli tovush bor. Ushbu tovushlar ham *b, p, t, d* singari tovushlarning o'zi, lekin farq bitta – ular nafas bilan, ya'ni o'pkadan to'g'ri chiqadigan havo oqimi bilan talaffuz qilinadi. Nafasli tovushlarni talaffuz qilayotganda tovushning talaffuzi bilan nafas chiqishi bir paytning o'zida sodir bo'lishiga e'tibor berish kerak. Shunday qilinmasa, bitta nafasli tovushning o'rniga *b+h, p+h* kabi ikki mustaqil tovush hosil bo'lib qoladi. Masalan: *p<sup>h</sup>u:l, b<sup>h</sup>u:l, g<sup>h</sup>ar, tum<sup>h</sup>a:ra*: Yozuvda sof undoshga *do chashmi: he* ("ikki ko'zli he") ni qo'shish orqali beriladi. Transkripsiyada <sup>h</sup> bilan belgilanadi: *b<sup>h</sup>a, p<sup>h</sup>a, r<sup>h</sup>a, d<sup>h</sup>a, ch<sup>h</sup>a* va h.k.z.

ب	پ	ت	ث	د	ڈ	ڈ	ر	ڑ	ذ	ڈ	ڈ	ڈ	ڈ
<i>n<sup>h</sup>a</i>	<i>m<sup>h</sup>a</i>	<i>l<sup>h</sup>a</i>	<i>g<sup>h</sup>a</i>	<i>k<sup>h</sup>a</i>	<i>ch<sup>h</sup>a</i>	<i>j<sup>h</sup>a</i>	<i>R<sup>h</sup>a</i>	<i>D<sup>h</sup>a</i>	<i>d<sup>h</sup>a</i>	<i>T<sup>h</sup>a</i>	<i>t<sup>h</sup>a</i>	<i>p<sup>h</sup>a</i>	<i>b<sup>h</sup>a</i>

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1-topshiriq. O'qing va talaffuzga e'tibor qaring:

*sihat, taxta, bahar, buxar, ham, hiran, xidmat, sahi:, saxi:, xat, hida:yat, hisa:b, daraxt, saxt, shahi:d.*

*b<sup>h</sup>a:p, b<sup>h</sup>u:l, b<sup>h</sup>i:k, ch<sup>h</sup>at, ch<sup>h</sup>u:na:, ch<sup>h</sup>ilka:, p<sup>h</sup>an, p<sup>h</sup>u:l, p<sup>h</sup>i:ka:j<sup>h</sup>a:g, j<sup>h</sup>u:t, j<sup>h</sup>i:l, t<sup>h</sup>a:li:, t<sup>h</sup>u:k, t<sup>h</sup>ela:, k<sup>h</sup>a:l, k<sup>h</sup>ola:, k<sup>h</sup>i:ra:, d<sup>h</sup>a:ga:, d<sup>h</sup>u:l,d<sup>h</sup>i:ma:, g<sup>h</sup>a:s, g<sup>h</sup>u:mna:, g<sup>h</sup>i:, T<sup>h</sup>ag, T<sup>h</sup>okar, T<sup>h</sup>i:k, paR<sup>h</sup>o, paR<sup>h</sup>a:i:, si:r<sup>h</sup>i:, D<sup>h</sup>at, D<sup>h</sup>ol, D<sup>h</sup>i:la:, ch<sup>h</sup>u:lha:, tum<sup>h</sup>a:ra:, nan<sup>h</sup>a:*

### 2-topshiriq. So'zlarni avval sekin, keyin esa tez talaffuz qiling:

*rehna:, shehr, nehr, behn, ehm, reh, keh, Mehmu:d, Behra:m, Shehla:, sehra:, sehra:yi:, rak<sup>h</sup>, ra:k<sup>h</sup>, sind<sup>h</sup>, budd<sup>h</sup>, ha:t<sup>h</sup>, sa:t<sup>h</sup>, deR<sup>h</sup>, paR<sup>h</sup>, kuch<sup>h</sup>, muj<sup>h</sup>, lik<sup>h</sup>, big<sup>h</sup>, suk<sup>h</sup>, duk<sup>h</sup>, dek<sup>h</sup>, meg<sup>h</sup>.*

### 3-topshiriq. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling:

rehna: - raha:, shehr - shaha:b, kehna: - kaha:, behn - bahot, rahi:m, rehmat, ehm, shahi:d, mehmud, teh, mehak, baha:r, behr, mehkam.

ma:-t<sup>h</sup>a: - ma:t<sup>h</sup>a:, ra-k<sup>h</sup>o - rak<sup>h</sup>o, ra:-d<sup>h</sup>a: - ra:d<sup>h</sup>a:, i-d<sup>h</sup>ar - id<sup>h</sup>ar, si:-d<sup>h</sup>i: - si:d<sup>h</sup>i:, u-d<sup>h</sup>ar - ud<sup>h</sup>ar, sa:-t<sup>h</sup>i: - sa:t<sup>h</sup>i, li-k<sup>h</sup>o - lik<sup>h</sup>o

## DIDAKTIK QISM

### 1-mashq. Quyidagi so‘zlarni eshiting va takrorlang:



hona:, ha:l, hindosta:n, vaha:N, kaha:N, jaha:N, haza:r, hoTal, naha:na:, d<sup>h</sup>u:p, t<sup>h</sup>oRa:, ch<sup>h</sup>aTa:, ch<sup>h</sup>oTa:, b<sup>h</sup>u:l, p<sup>h</sup>u:l, ha:t<sup>h</sup>, si:k<sup>h</sup>na:, paR<sup>h</sup>na: g<sup>h</sup>ar, achch<sup>h</sup>a:, pich<sup>h</sup>la:

### 2-mashq. Mashq daftaridagi 10-topshiriqni bajaring.



### 3-mashq. Ovoz chiqarib o‘qing va yozing:

كهڑا، اعلان، غور، خفاقت، شطرنج، ضرب، بچ، ڈاكٲر، حج، ثابت، ہندوستان، تاج محل، ہمارا دوست، اچھا گھر، وہاں جاؤ، ہاتھ منہ دھو، چھوٹا بچہ، تمہارا نام، ماں باپ کا گھر، ان کا وطن، خوبصورت پھول، خراب عادت، والدہ، دھوپ، درہ، مہنگا پھل، ہلکا ناشتہ، بڑا شہر، لکھنا پڑھنا، كهڑا ہونا، ہاتھ دھونا۔

Murakkab ot fe'llar ism (fe'ldan boshqa so'z turkumi) va fe'llarning birikmasidan yasalgan murakkab fe'llardir. Bu fe'llarning ot qismi ot, o'zgarimas sifat, arabcha sifatdosh, ravish, predikativ ot va h.k.lar bo'lishi mumkin. (Predikativ ot deb arabcha va inglizcha harakat nomlari, forscha fe'l o'zagi va boshqalarga aytiladi. Ular urduda biron fe'l bilan qo'llanib, so'z turkumiga xos grammatik belgilarga ega emas.) Ikkinchi bo'lak sifatida کرنا "qilmoq", ہونا "bo'lmoq" رہنا "bo'lmoq, yashamoq" رکھنا "ushlamoq, qo'ymoq", آنا "kelmoq", چلنا "ketmoq" kabi fe'llar kelishi mumkin. Misol uchun:

- پسند آنا —yoqmoq
- پاڊر رکھنا —esda tutmoq
- خرید کرنا —xarid qilmoq
- حاصل ہونا —qo'lga kiritmoq
- دور ہونا —yo'qotmoq, barham bermoq
- ٹھیک ہونا —tuzalmoq, to'g'ri bo'lmoq
- شروع ہونا —boshlanmoq
- پاس کرنا —topshirmoq (imtihon)
- پسند —(ot) did, tanlash

- یاد –(ot) xotira, yod  
 خرید –(forscha fe'l o'zagi) xarid  
 حاصل – (arabcha sifatdosh) olingan, qo'lga kiritilgan  
 دور – (ravish) uzoq  
 تحیک – (sifat) to'g'ri, tuzatilgan  
 شروع – (arabcha harakat nomi) boshi, ibtido  
 پاس – (harakat nomi) uzatish, o'tkazish

Ko'p hollarda bitta ot كرتا va هونا fe'llari bilan birikadi. Natijada كرتا fe'lli o'timli va هونا fe'lli o'timsiz fe'l yasaladi. Misol uchun:

- شروع كرتا –boshlamoq شروع هونا –boshlanmoq  
 حاصل كرتا –olmoq, qo'lga kiritmoq حاصل هونا –qo'lga kirmoq  
 دور كرتا –yo'q qilmoq دور هونا –yo'qolmoq

Ba'zi otlar bir vaqtda bir necha fe'llar bilan birikadi.

- یاد كرتا –eslamoq, yod olmoq, yodlamoq  
 یاد هونا –yodda bo'lmoq, esda turmoq, esda qolmoq  
 یاد آنا –yodga tushmoq  
 یاد هونا –esda turmoq, yodda qolmoq  
 یاد كھنا –esda tutmoq, unutmazlik  
 یاد دلانا –eslatmoq, esga solmoq

Tarkibida  $رہتا$  va  $رکھتا$  fe'llari bo'lgan murakkab fe'llar uzoq davom etgan ish-harakat yoki holatni bildiradi. Masalan:

یہ مجھے یاد ہے –Bu mening esimda. (shu daqiqada)

یہ مجھے یاد رہیگا –Bu mening esimda turadi, yodda tutaman.  
(hamisha)

وہ چپ ہے –U jim turibdi. (hozir)

وہ چپ رہا –U jim qoldi. (qandaydir vaqt oralig'ida)

وہ چپ تھا –U jim edi, u sukut saqladi.

اس نے مجھ کو چپ رکھا –U gapirtirmadi. (U meni jim turishga majbur qildi.)

Murakkab ot fe'l – bu shunday murakkab so'zki, u lug'aviy va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi: u yaxlit holda bitta savolga javob bo'ladi, gapda bitta yaxlit gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Murakkab ot fe'lning ot qismi jins, son va kelishik kabi grammatik belgilarga ega emas. Buning natijasida gapning boshqa bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydi, gapda hech qanday grammatik ahamiyatga ega bo'la olmaydi. Barcha grammatik vazifalarni fe'l qismi bajaradi. Misol uchun:

یہاں کتابیں فروخت ہوتی ہیں۔  
یہاں کتابیں کتنی ہیں۔ } – Bu yerda kitoblar sotiladi.

مورakkab ot fe'l bo'lib, unga yaxlitligicha  $سوتیلموق$  "sotilmoq" sodda fe'lga qo'yilgan savolni berish mumkin: "Kitoblar nima qilinadi?" Javob:  $وہ کتنی ہیں۔$   $وہ فروخت ہوتی ہیں۔$  so'zi muannas jinsdagi otdir. Ammo murakkab fe'l tarkibida u jinsga ega emas, son va kelishikda ham o'zgarmaydi. Shuning uchun boshqa so'zlar bilan bog'lanmaydi.  $یہاں$  va  $کتابیں$  so'zlari bilan faqat fe'l qismi bo'lgan  $موت$  munosabatga kirishadi.

-Bu jummlar to'g'ri. یہ جملے ٹھیک ہیں۔

-Men jummlalarni tuzatdim. میں نے جملے ٹھیک کئے۔

Birinchi gapda کے ٹھیک va ہیں mustaqil so'zlaridir. Ularning har biri kesim tarkibida o'ziga xos alohida vazifani bajaradi. ٹھیک kesimning ot qismidir va unga shunday savol qo'yish mumkin: یہ جملے کیسے ہیں؟

Ikkinchi gapda کے ٹھیک murakkab fe'l hisoblanadi. U yaxlit ravishda sodda ot kesim vazifasini bajaradi. Unga alohida savol qo'yish mumkin emas. (تہم نے جملے کیسے کیسے؟). Savol butun so'z birikmasida qo'yilishi mumkin: Jummlalarni nima qilding? تم نے جملوں کا کیا کیا؟

Javob: ان کو ٹھیک کیا. Ularni tuzatdim.

### Ot + fe'l tarkibli frazeologik birikmalar

#### اسم و فعل قسم کے مستقل عبارتے

Urdu tilida ism (fe'ldan boshqa so'z turkumi) va fe'ldan iborat bo'lgan birikmalar ko'p qo'llanadi va ular frazeologik birikmalar deb ataladi. Bunday birikmlarning ot qismida ko'pincha ot va o'zgaruvchan sifat, ba'zi hollarda fe'ldan boshqa so'z turkumiga xos so'zlar bo'lishi mumkin. Fe'l qismi esa "qilmoq" va "bo'lmoq" fe'llari bilan ifodalanishi mumkin. Misol uchun:

ترجمہ کرنا -tarjima qilmoq mz. - tarjima (ot)

عزت کرنا -hurmat qilmoq ms. - hurmat (ot)

سیدھا کرنا -to'g'irlamoq سیدھا -to'g'ri (sifat)

اچھا ہونا -yaxshilanmoq, tuzuk bo'lmoq اچھا -yaxshi (sifat)



نیند آنا	-uyqu bosmoq	نیند ms.	- uyqu (ot)
راہ لینا	-yo'l olmoq	راہ ms.	- yo'l (ot)
پچھے پڑنا	-ketiga tushmoq	پچھے	-orqada, orqaga (ravish)
ہاں کرنا	-rozilik bermoq	ہاں	- "ha" (yuklama)

Fe'ning ot qismi ba'zan ko'plik sonida bo'lishi mumkin. Masalan:

نتیں کرنا	-yalinmoq	منت ms.	-iltimos
آہیں بھرنا	-uh tortmoq	آہ ms.	-uflash, xo'rsinish

Ot qism ba'zan poslelog bilan yoki poslelogsiz kelishi mumkin:

حیرت میں ڈالنا	-hayron qilmoq, hayratga solmoq	حیرت ms.	-hayrat
ہاتھ آنا	-qo'lga kirmoq, qo'lga tushmoq	ہاتھ mz.	-qo'l
بیروں پڑنا	-yalinmoq (oyoqqa yiqilmoq)	بیرو mz.	-oyoq

Ot qism bir butun birikma yoki murakkab so'z holida bo'lishi mumkin:

ہاں میں ہاں ملانا	-qo'llab quvvatlamoq, tasdiqlamoq
منت سہجت کرنا	-iltimos qilmoq, yalinmoq

Ot + fe'l tarkibli frazeologik birikma murakkab ot fe'l bilan erkin sintaktik birikma o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydi. U murakkab ot kabi yaxlit tushunchani anglatadi, bitta grammatik savolga javob beradi va aslida bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Shu bilan birga faqat shakl jihatidan birikma qismlari biroz mustaqillikka ega.

Masalan:

- (murakkab ot fe'l) میں نے لڑکے کو یاد کیا -Men bolani esladim.  
(frazelogik birikma) میں نے لڑکے کی تعریف کی -Men bolani maqtadim.  
(erkin//sintaktik birikma)<sup>33</sup> میں نے لڑکے کی کتاب لی -Men bolaning kitobini oldim.

murakkab fe'li kabi lug'aviy frazeologik birikmasi یاد کیا کی تعريف کی birlikka ega: bitta savolga javob beradi, bir tushunchani anglatadi, bitta ma'no urg'usiga ega, oldinda turgan so'zlardan pauza bilan ajralib turadi. Ammo grammatik nuqtai nazardan u o'z shakliga ko'ra ئى کتاب erkin sintaktik birikmaga o'xshaydi. تعريف muannas jinsida bo'lib, u کتاب kabi jinsini saqlab qoladi va shuning orqasida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishadi. U لڑکا so'zi bilan كى poslelogi orqali bog'lanadi, shuningdek, fe'l bilan jins va sonda moslashadi.

Qiyoslang:

لڑکے کی تعريف كى ← لڑکے كى كتاب لى

Agar shakl tomoniga e'tibor bersak, u holda:

so'ziga تعريف so'zi لڑکے كى - kesim bo'lib, كى to'g'ri to'ldiruvchi - تعريف aniqlovchi bo'lib chiqadi. Aslida, mantiqan كى تعريف birikmasi kesim bo'lib, كى - esa to'ldiruvchidir.

بہار لڑکے اچھے ہوئے -Kasal bolalar tuzaldilar.

بہار لڑکے ٹھیک ہوئے -Kasal bolalar tuzaldilar.

یہ لڑکے ٹھیک ہیں۔ -Bu bolalar - sog'.

<sup>33</sup> shunday so'z birikmasiki, tarkibidagi har bir so'z mustaqil sintaktik vazifani bajaradi.

یہ لڑکے ایتھے ہیں۔ -Bu bolalar – yaxshi (sog’).

کیسے؟ سifatlari؛ ایتھے، erkin sintaktik birikmalardir، ٹھیک ہیں؛ ایتھے ہیں  
savoliga javob bo‘ladi.

میرا ٹھیک murakkab ot fe‘l bilan ifodalangan sodda fe‘l kesimdir. U کیا  
؟ savoliga javob bo‘ladi.

میرا frazeologik birikma bo‘lib, u bitta tushunchani anglatadi,  
oldindagi so‘zlardan pauza bilan ajralib turadi, bitta savolga javob beradi  
va aslida gapda kesim vazifasini bajaradi. Ammo shaklan erkin ٹھیک  
sintaktik birikmasiga o‘xshaydi. Ot qism bo‘lgan sifat jins va sonda  
o‘zgarib, لڑکے so‘zi bilan jinsda moslashgan. Qiyoslang: لڑکے ایتھے ہیں

میں بیچھے مڑا -Men orqaga o‘girildim.

پتھر لڑکے کے بیچھے گرا -Tosh bolaning orqasiga tushdi.

پتھر لڑکے کے ایک میز بیچھے گرا -Tosh boladan bir metr nariga tushdi.

میں لڑکے کے بیچھے پڑا -Men bolaning ketiga tushdim.

میں نے لڑکے کے بیچھے کیا -Men bolani poyladim.

Birinchi gapda مڑا بیچھے erkin sintaktik birikmadir. Bunda بیچھے ravish  
bilan ifodalangan o‘rin holiday.

Ikkinchi gapda گرا بیچھے erkin sintaktik birikmadir. بیچھے o‘rin holi  
tarkibidagi ikkinchi darajali poslelogdir. Uchinchi gapda گرا بیچھے erkin  
sintaktik birikmadir. بیچھے o‘rin holi tarkibidagi mustaqil ravishdir.

To‘rtinchi gapda پڑا بیچھے frazeologik birikmadir. U bitta so‘z o‘rnida  
kelgan sodda fe‘l kesim bo‘lib, yaxlit holda bitta tushunchani anglatadi.  
Boshqa so‘zlardan pauza bilan ajralib turadi. کیا کیا نے؟ savoliga javob

bo'ladi. Ammo **چچہ** (ot qism) tashqi ko'rinishdan mustaqil ravish yoki ikkinchi darajali poslelogga o'xshaydi: u کے poslelogi yordamida لا so'zi bilan bog'langan.

Beshinchi gapda ham kesim **چچہ** کیا frazeologik birikmasi bilan ifodalangan. Birikmaning ot qismi bo'lgan **چچما** nominal (mustaqil qo'llanmaydigan) otdir, u jins kategoriyasiga ega bo'lib, لا so'zi bilan qaratqich kelishigi orqali bog'langan.

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing va tarjima qiling.

#### تمک کا تھیلا

ایک دن چھ جانوروں: شیر، چیتا، ریچھ، زبیرا، سارس اور سانپ نے ایک جگہ جمع ہو کر تھوڑی دیر تک ادھر ادھر کی باتیں کیں اور پھر پانی پینے کے لیے ندی کی طرف چلے۔ راستے میں اچانک شیر کی نظر ایک تھیلے پر پڑی اور اس نے اپنے ساتھیوں سے کہا: وہ دیکھو ایک تھیلا۔

چیتے نے آگے بڑھ کر تھیلے کو سونگھ کر دیکھا اور کہا: اس سے تمک کی بو آتی ہے۔ باقی جانوروں نے بھی باری باری سے تھیلے کو سونگھ کر کہا: ہاں، سچ مچ اس سے تمک کی بو آتی ہے۔

ریچھ نے اپنے ناخنوں سے تھیلے کو کھولنے کی کوشش کی لیکن اسے کھولنے میں ناکام رہا۔ تب زبیرے نے مشورہ دیا کہ سارس کو اپنی لمبی چونچ سے سوراخ کرنا چاہیے۔ باقی جانوروں نے اس کی ہاں میں ہاں ملائی۔ سارس نے اپنی چونچ سے سوراخ کیا۔ سانپ آگے بڑھا اور اپنی لمبی زبان سے تھیلے کے اندر کی چیز کا مزہ اچکھ کر اپنے ساتھیوں کو یقین دلایا کہ بیشک اس میں تمک ہے۔

جانوروں نے باری باری سے تمک چکھ کر دیکھا اور خوش ہو کر کہنے لگے کہ اہا ہا ہا ہا! اب ہم روز مزے سے تمک کھائیں گے۔ اچانک شیر نے دھاڑ کر کہا: یہ میرا ہے۔ کیونکہ اس کو سب سے پہلے میں نے دیکھا۔ اور میرا کیوں نہیں؟

ریچھ نے کہا۔ کیا میں نے تھیلے کو کھولنے کی کوشش نہیں کی؟ ہاں، تم نے کھولنے کی کوشش ضرور کی، لیکن کھولنے میں ناکام رہے، زیرے نے کہا۔ اور میں نے تم لوگوں کو مشورہ دیا تھا کہ سارس کو اپنی چونچ سے تھیلے میں سوراخ کرنا چاہیے اس لیے نمک میرا ہونا چاہیے۔ نہیں نہیں۔ سارس نے اعتراض کیا۔ میں نے تھیلے میں سوراخ کیا۔ اس لیے یہ میرا ہے۔

ادھر سانپ نے پھنکار مار کر کہا: یہ میرا ہے اور کسی کا نہیں ہے، کیونکہ میں نے اس کو کچھ کر تم لوگوں کو یقین دلایا تھا کہ سچ سچ یہ نمک ہے۔ خبردار! اگر تم میں سے کوئی گڑبڑ کرے گا تو میں اس کو کاٹ کر ختم کروں گا۔ اس طرح جانوروں میں لڑائی شروع ہو گئی۔

اتنے میں اچانک وہاں کہیں سے ایک گیڈر آ گیا۔ اس نے جھگڑے کی وجہ پوچھی۔ جانوروں نے اس کو سارا قصہ سنایا۔ گیڈر نے ساری بات خاموشی سے سنی اور بولا: ٹھیک ہے۔ یہ مسئلہ میں حل کروں گا۔ تم سب آنکھیں بند کر کے سو تک گنو۔ اس سچ میں تھیلے کو کہیں چھپاؤں گا۔ پھر تم میں سے جو اس کو سب سے پہلے پایے گا، وہی اس کا مالک ہو گا۔

سب جانور راضی ہو گئے۔ ان سب نے آنکھیں بند کیں اور گنتی گنتے لگے۔ سو تک گننے کے بعد انہوں نے آنکھیں کھولیں اور تھیلے کی تلاش کرنے لگے۔ ان سب نے خوب تلاش کی لیکن تھیلہ کہیں نہیں ملا۔ تب جانوروں نے مایوس ہو کر آپس میں طے کیا کہ اب گیڈر سے پوچھ کر تھیلے کو نکالیں گے اور نمک کو برابر حصوں میں تقسیم کریں گے۔ یہ طے کر کے وہ گیڈر کو آواز دینے لگے۔ انہوں نے دیر تک آواز دیں۔ لیکن گیڈر نے کوئی جواب نہیں دیا۔ اب گیڈر وہاں کہاں تھا؟ وہ تو اس وقت اپنی کھوہ میں بیٹھا تھا۔ وہ مزے سے نمک کھاتا تھا اور ان ہی وقت جانوروں کا مذاق اڑاتا تھا۔

## 2-topshiriq. Jumjalarni tarjima qiling.

۱) آپ کھانا کھا لیجیے میں تو اپنے دوست کا انتظار کر رہا ہوں۔ اگرچہ بوڑھی ہے مگر گھر کے سب کام وہ خود ہی کر لیتی ہے۔ کیا تم گاڑی چلا لیتے ہو؟ ۲) کیا، آپ میرے لیے کتابیں لادینگے؟ میں نے آپ کے لیے اچھی اچھی چیزیں خریدی ہیں۔ یہ نوکرا بھی آپ کے لیے کرہ صاف کرے گا۔ ۳) کیا، اس دھو بی نے ہمارے کپڑے دھو دیے ہیں؟ کیا

ان کے سب رشتہ دار اس گاڑی کے ایکٹیوٹ میں مر گئے؟ کیا وہ موٹار کار کا سارا کھانا کھا گیا؟ دیکھ! وہ بلی ریٹر بیڑ چلا گئی۔ ہم نہیں بیٹھ جائیں گے۔

### 3-topshiriq. Berilgan fe'llarni o'qing.

شرع کرنا	-boshlamoq	خرچ ہونا	-sarf bo'lmoq
دفع ہونا	-boshlanmoq	ضائع کرنا	--zoye ketkazmoq, yo'q qilmoq
ختم کرنا	-tugatmoq	ضائع ہونا	--zoye ketmoq, yo'q bo'lmoq
ختم ہونا	-tugamoq	سوار ہونا	-o'tirmoq (transportga)
تقسیم کرنا	-bo'lmoq	روانہ ہونا	-ketmoq, yo'l olmoq
تقسیم ہونا	-bo'linmoq	پاس کرنا	-topshirmoq (imtihon)
فردحیت کرنا	-sotmoq	پاس ہونا	-o'tmoq (imtihondan)
نقل کرنا	-ko'chirmoq	قیل ہونا	-yiqilmoq (imtihondan)
حاصل کرنا	-erishmoq, qo'lga kiritmoq	واپس آنا	-qaytib kelmoq
حاصل ہونا	-erishilmoq, qo'lga kirmoq	واپس جانا	-qaytib ketmoq
راضی ہونا	-rozi bo'lmoq	واپس کرنا	-qaytarmoq
داخل ہونا	-kirmoq	پسند کرنا	-yoqtirmoq
بند کرنا	-yopmoq	پسند ہونا	-yoqmoq
بند ہونا	-yopilmoq	پسند آنا	-yoqmoq
خرچ کرنا	-sarflamoq	یاد کرنا	-eslamoq, yod olmoq
یاد آنا	-esga tushmoq	دکھائی دینا	-ko'rinmoq

یاد ہونا	-esda turmoq	نظر آنا	-ko'rinmoq
یاد رہنا	-esda qolmoq	سنائی دینا	-eshitilmoq
یاد رکھنا	-yodda tutmoq	خوش ہونا	-xursand bo'lmoq
یاد دلانا	-eslatmoq	اداس ہونا	-xafa bo'lmoq
قائم کرنا	-asos solmoq	ناراض ہونا	-xafa(norozi) bo'lmoq
قائم ہونا	-asos solinmoq	معلوم کرنا	-aniqlamoq
قائم رہنا	-saqlanmoq	معلوم ہونا	-ma'lum bo'lmoq, tuyulmoq
قائم رکھنا	-saqlamoq	خالی کرنا	-bo'shatmoq
بیمار ہونا	-kasal bo'lmoq	خالی ہونا	-bo'shamoq
ٹھیک کرنا	-tuzatmoq, to'g'rilamoq	ادا کرنا	-bajarmoq
ٹھیک ہونا	-tuzalmoq	پر کرنا	-to'ldirmoq
تیار کرنا	-tayyorlamoq	صاف کرنا	-tozalamoq
تیار ہونا	-tayyorlanmoq	صاف ہونا	-tozalanmoq

#### 4- topshiriq. Jumalarni tarjima qiling.

۱) میں لال قلعہ کے اوپر سے جامع مسجد نہیں دیکھ پایا۔ ان کے ہاتھوں پر مہندی لگی تھی۔ وہ کام نہیں کر پائیں۔  
 کیا تم اپنا کرہ صاف کر پائے؟ وہ لڑکی بیمار ہو گئی تھی۔ اس وجہ سے وہ ہمارے گھر نہیں آ پائی۔ (۲) اس غم ناک کہانی کو  
 سننے کے بعد وہ لوگ رو پڑے۔ ہم لڑکی کو دیکھ کر فس پڑے۔ عامر اندھیرے میں گر پڑا۔ (۳) تم یہ کیا کر بیٹھے؟ میں  
 اپنی ہوش کھو بیٹھی۔ نرگس نے راج سے پیار کر کے سنیل کا دل توڑ ڈالا۔ (۴) ہمارے شریر لڑکے نے سب کھلونے توڑ

ڈالے۔

5-topshiriq. Quyidagi fe'llarni o'qing va yod oling.

- کام کرنا -ishlamoq/ کام mz./
- (سے-کا) کام لینا -foydalanmoq, ishlatmoq /biron narsani/
- (کے لیے-کا) کام دینا -xizmat qilmoq / kimgadir nimadir sifatida/
- (کے) کام آنا -asqotmoq, foyda bermoq, ish bermoq/kimgadir/
- (سے) سوال کرنا -savol bermoq/ سوال mz./
- (کا) جواب دینا -javob bermoq / جواب mz./
- (کا) پیچھا کرنا -ortidan kuzatmoq /kimningdir/
- (کے) پیچھے پڑنا -ketiga tushmoq /kimningdir/
- (سے-کا) وعدہ کرنا -va'da bermoq / kimgadir nimadir qilishga/
- (کا) استعمال کرنا -foydalanmoq, ishlatmoq /nimanidir/
- (کا) معائنہ کرنا -ko'rib chiqmoq, tekshirmoq /nimanidir/
- (کا) علاج کرنا -davolamoq /kimnidir/
- (کا) اعلان کرنا -e'lon qilmoq /nimadir haqida/
- (کی) مدد کرنا -yordam bermoq /kimgadir/
- (کی) خدمت کرنا -xizmat qilmoq /kimgadir/
- (کی) عزت کرنا -hurmat qilmoq / kimnidir/
- (کی) صافائی کرنا -tozalamoq, yig'ishtirmoq /biror joyni/
- (کی) خاطر تواضع کرنا -mehmon qilmoq /kimmidir/
- (کی) کوشش کرنا -harakat qilmoq /nimadir qilishga/



- (کی) رہنمائی کرنا –rahbarlik qilmoq
- (کی) راہ لینا –yo‘l olmoq /qayergadir/
- (کا) ترجمہ کرنا –tarjima qilmoq /nimanidir/
- (کا) انتظار کرنا –kutmoq /kimnidir/
- (پر) استری کرنا –dazmollamoq /nimanidir/
- (کا) افتتاح کرنا –ochmoq /yig‘ilishni va h.k/
- (کے) ہاتھ آنا –qo‘lga kirmoq /kimningdir/
- (کو-کی) خبر دینا –xabar bermoq /kimgadir nimadir haqida/
- محنت کرنا –ishlamoq, mehnat qilmoq /ms. محنت/
- (سے) محبت کرنا –sevmoq /kimnidir/
- (کو-سے) محبت ہونا –sevib qolmoq /kimnidir/
- (سے) پیار کرنا –yaxshi ko‘rmoq /kimnidir/
- تقریر کرنا –ma’ruza qilmoq /ms. تقریر/
- آرام کرنا –dam olmoq /mz. آرام/
- شور کرنا (چنانچہ) –shovqin solmoq /mz. شور/
- (پر) یقین کرنا –ishonmoq /nimagadir/
- (کو-پر) یقین آنا –ishonmoq /kimgadir, nimagadir/
- (کو-کا) یقین کرنا –ishonmoq, ishonchi komil bo‘lmoq
- (کو-کا) یقین دلانا –ishontirmoq /kimnidir nimagadir/
- (میں) حصہ لینا –qatnashmoq /nimadadir/

–ishtirok etmoq /nimadadir/ (میں) شرکت کرنا

–ishtirok etmoq /nimadadir/ (میں) شریک ہونا

–maqтанmoq, ma'qullamoq /nimanidir/ (کی) تعریف کرنا

–yoqmoq (کو) چھانگنا

## DIDAKTIK QISM

مشق ۱۔ مندرجہ ذیل الفاظ اور عبارات کا ترجمہ کیجیے۔

1. U kunlar esimda. 2. U o'z va'dasini esladi. 3. Men ularni kutishga va'da berdim. 4. Sen shunga ishonasanmi? 5. Ular senga haqiqatni aytishdi. 6. Kimdir unga haqiqatni aniqlab berishga va'da berdi. 7. Biz mamlakat bo'ylab safarga tayyorgarlik ko'rdik. 8. Men unga va'dasini eslatganimda, u juda xafa bo'ldi. U bergan va'dasini unutadigan odati yo'qligini aytdi. 9 Do'stlar yana biroz kutishga qaror qildilar.10. Talaba o'qituvchining savollariga yaxshi javob berdi. 11.O'qituvchi talabani maqtadi. 12. Do'stlar ishni o'zaro taqsimlab oldilar va uni bajarishga kirishdilar. 13. Bemorning issig'i bor edi. Shifokor bemorni diqqat bilan tekshirdi va davolashni boshladi. Bir hafta ichida u tuzaldi. 14. U birdan kasal bo'lib qoldi. Uning issig'i bo'lgani uchun poliklinikaga qo'ng'iroq qildi va shifokorni uyga chaqirdi. 15. Odamlar uni nima uchun bunchalik hurmat qilishadi? 16. Men bunday qilishni maslahat bermayman. 17. Ular nafaqat bir-birini sevardi, balki juda hurmat qilardi. 18. Sen kech qoladigan bu yomon odatingni tashla. 19. Biz bu kunni hech qachon esdan chiqarmaymiz. 20. Ular qanday bo'lmasin, do'stlikni saqlab qolishni istaydilar. 21. Atrofdagi hech kim ko'rinmaydi.

مشق ۲۔ مندرجہ ذیل الفاظ اور عبارات کا ترجمہ کیجیے۔

آکھیں بند کرنا

مشورہ

نمک کا تھیلا

آکھیں کھولنا

مشورہ دینا

بیوقوف جانور

سوئک گننا	کچھ کرنے کا مشورہ دینا	شیر
چھپانا	کسی چیز کا مزا چکھنا	چپٹا
اس جگہ میں	کسی چیز کو چکھ کر دیکھنا	بھالو
تلاش، تلاش کرنا	باری باری سے	زیرا
کسی چیز کی تلاش کرنا	یقین دلانا	سارس
برابر حصوں میں تقسیم کرنا	کسی کو کسی بات کا یقین دلانا	سانپ
کسی کو آواز دینا	پھونکار، پھونکار مارنا	گیڈر
دیر تک آوازیں دینا	ڈہارنا	جج ہونا
کہیں نہ ملنا	گڑبڑ، گڑبڑ کرنا	ادھر ادھر کی باتیں کرنا
فیصلہ، فیصلہ کرنا	کانٹا	ندی کی طرف روانہ ہونا
کچھ کرنے کا فیصلہ کرنا	لڑائی، لڑنا	کسی کی نظر کسی چیز پر پڑنا
کھوہ	اتنے میں	کسی چیز پر کسی کی نظر پڑنا
مذاق، مزاق اڑانا	کہیں سے	کسی بات میں کامیاب ہونا
کسی کا مزاق اڑانا	قصہ	کسی بات میں ناکام ہونا
کسی کے ساتھ مزاق کرنا	خاموشی سے	ناخن اور چونچ
اتفاق	حل کرنا	سوراخ
کسی چیز سے ہاتھ دھو بیٹھنا	مسئلہ حل کرنا	کسی چیز میں سوراخ کرنا

**Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:**

1. Murakkab ot fe'llar haqida ma'lumot bering.
2. Ot + fe'l tarkibli frazeologik birikmalarga misollar keltiring.
3. Berilgan matndagi yangi so'zlarni yodlang.

**30-DARS**  
**MURAKKAB INTENSIV FE'LLAR**

زوردار مرکب افعال

**Mavzuning o'quv maqsadi:** *murakkab intensiv fe'llar, ularning yasalishi, nutqda qo'llash malakasini hosil qilish.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *intensiv fe'l, murakkab intensiv fe'llar, ko'makchi fe'llar.*

Murakkab intensiv fe'llar odatda asosiy fe'lning o'zagiga ko'makchi fe'llardan birini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: **يولدا** “yozib olmoq” **دنيا** **كها** “aytib qo'ymoq” va **هوكازو** (**كهم** va **كهم** - asosiy fe'llarning o'zagi, **دنيا** va **دنيا** ko'makchi fe'llar).

Ko'makchi fe'l sifatida **آتا** “kelmoq”, **جاتا** “ketmoq”, **لينا** “olmoq”, **دنيا** “bermoq”, **اھنا** “turmoq”, **بېشنا** “o'tirmoq”, **تۇشنا** “tushmoq”, **تاشنا** “tashlamoq” va boshqa fe'llar qo'llaniladi. Odatda o'timli fe'llar ko'makchi o'timli fe'llar bilan, o'timsiz fe'llar esa ko'pincha ko'makchi o'timsiz fe'llar bilan qo'shilib keladi. Masalan:

<b>كرنا</b> -qilmoq	<b>كرلينا</b> -qilib olmoq	(o't-li + o't-li)
<b>ركھنا</b> -qo'ymoq	<b>ركھ درينا</b> -qo'yib qo'ymoq	(o't-li + o't-li)
<b>كالكنا</b> -chiqmoq	<b>كئلكل آنا</b> -chiqib kelmoq	(o't-siz + o't-siz)
<b>چۇھنا</b> -ko'tarilmoq	<b>چۇھ جاتا</b> -chiqib ketmoq	(o't-siz + o't-siz)
<b>چينھنا</b> -baqirmoq	<b>چينھ اھنا</b> -baqirib yubormoq	(o't-siz + o't-siz)
<b>رودنا</b> -yig'lamoq	<b>رودچنا</b> -yig'lab yubormoq	(o't-siz + o't-siz)
<b>توژنا</b> -sindirmoq	<b>توژ اھنا</b> -sindirib tashlamoq	(o't-li + o't-li)

گرتا -tushmoq      گرېٽا -tushib ketmoq (o't-siz + o't-siz)

کہنا -demoq      کہہ اٹھنا -aytib qo'yomoq (o't-li + o't-siz)

Agar ikkala komponent, ya'ni asosiy va ko'makchi fe'l o'timli bo'lsa, murakkab fe'l o'timli hisoblanadi, ya'ni ergativ konstruksiyada qo'llanadi. Agar ikki komponentdan biri o'timsiz bo'lsa, murakkab fe'l o'timsiz hisoblanib, oddiy subyektli konstruksiyada qo'llanadi. Masalan:

کہہ دینا o't-li + o't-li = o't-li → میں نے کہہ دیا Men aytib qo'ydim.

پتی روپڑی o't-siz + o't-siz = o't-siz → پتی روپڑی Qizcha yig'lab yubordi.

وہ پوچھ بیٹھا o't-li + o't-siz = o't-siz → وہ پوچھ بیٹھا U so'rab qoldi.

### Intensiv fe'llarning umumiy ma'nosi

زوردار مرکب افعال کے مشترک معنی

Murakkab intensiv fe'llar tez, keskin, aniq natijaga ega bo'lgan ish-harakatni anglatadi. Bu yerda ish-harakatning nihoyasiga yetganligi muhim emas. Ko'pincha muvaffaqiyatli tugallangan, nihoyasiga yetib, ma'lum natijaga ega bo'lgan ish-harakat haqida so'z ketganda intensiv fe'llar qo'llaniladi. Ba'zi bir intensiv va nointensiv fe'llarning qo'llanilishiga misollar keltiramiz.

میں نے کتاب پڑھی -Men kitob o'qidim

میں نے کتاب پڑھ لی -Men kitobni o'qib bo'ldim

Birinchi gapda  $\text{پڑھی}$  sodda fe'li notugal ish-harakatni bildiradi (Ish-harakatning ma'lum tugallikka yetganiga ishora yo'q). Ikkinchi gapdan ( $\text{پڑھ لی}$ ) tugal ish harakat (butunlay tugagan, yoki ma'lum chegaraga yetgan ish-harakat) anglashiladi.

میں نے آدھی کتاب پڑھ لی -Men kitobning yarmini o'qib bo'ldim.

میں نے آدھی کتاب پڑھی -Men kitobning yarmini o'qidim.

Ikkala holda ham ish-harakat tugallangan. Bir xil hajmda amalga oshgan. Ammo birinchi gapda intensiv fe'l yordamida ish-harakatning to'la-to'kis amalga oshishi, ikkinchi gapda esa ma'lum miqdorda bajarilishi ko'zda tutilgan.

وہ بیٹھا لیکن پھر اٹھ گیا۔ -U o'tirdi, ammo keyin turib ketdi.

وہ اندر آیا، بیٹھا اور کم میں لگ گیا۔ -U ichkariga kirdi, o'tirdi va ishga kirishib ketdi.

Birinchi gapdagi بیٹھا fe'li bilan ifodalangan ish-harakat to'liq amalga oshmagan, u tezda boshqa ish-harakatga ( اٹھ گیا ) almashingan. Bu ikkinchi ish-harakat ma'lum natijaga ega. Shuning uchun ham u اٹھ گیا intensiv fe'li bilan ifodalangan. Ikkinchi gapdagi uchala ish-harakat hammasi to'liq amalga oshgan, ularning natijasi saqlanib turibdi. Ammo har bir ish-harakat alohida-alohida amalga oshmagan. Uch ish-harakat bir so'z bilan aytganda, bir jarayonning uch bosqichidir. Shu jarayonning uchinchi bosqichi intensiv fe'l bilan ifodalangan.

کھڑکی کس نے کھولی؟ کیوں کھولی؟ بند کر داسے۔ -Kim derazani ochdi? Nima uchun ochdi? Yop uni.

کھڑکی کس نے کھول دی؟ کیوں کھول دی؟ بند کر داسے۔ -Derazani kim ochib qo'ydi? Nimaga ochib qo'ydi? Yopib qo'y uni.

Birinchi gapda کھولی sodda fe'lidan ish-harakatning o'zi emas, balki ish-harakatning bajaruvchisi va sababi anglashiladi. Ikkinchi gapda esa ish-harakat birinchi o'ringa o'tgan. Bunda so'zlovchi derazani kim yoki nima uchun ochganigagina emas, balki uning ochib qo'yilganligiga ishora mavjud.

### Ko'makchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari

وینا، لیزا، جانا، آنا ko'makchi fe'llari sermahsul hisoblanadi.

O'timsiz ko'makchi fe'l تى makonda amalga oshadigan ish-harakatni anglatuvchi fe'llar bilan qo'shilib keladi. Bular ko'p emas, ularga quyidagilar kiradi:

كۆچمە	-surilmoq	بۇرھنا	-ilgarilamoq
بۇنا	-surilmoq, tisarilmoq	اگنا	-unmoq, o'smoq
كۆكنا	-chiqmoq	ايجرنا	-ko'tarilmoq
دورنا	-yugurmoq, chopmoq	دھنا	-botmoq

O'timsiz intensiv fe'l چا ko'pincha o'timsiz fe'llar bilan qo'shilib keladi, bu fe'llar ham makondagi biron ish-harakatni bildiradi. تى o'timsiz fe'li asosiy fe'l bildirgan ish-harakatni so'zlovchi tomon yo'nalganda qo'llaniladi. چا esa markazdan uzoqlashuvchi ish-harakatni bildiradi. Bir necha misollarni ko'ramiz:

هت جاؤ۔۔ يہاں سے نکل جاؤ۔ -Nari tur. Chiq bu yerdan (subyektning so'zlovchidan uzoqlashishi).

دوستوں نے بلایا اور وہ فوراً نکل آیا۔ -Do'stlar chaqirishdi va u o'sha zahoti keldi.

اس کی آنکھیں اندر کودھنس گئیں اور چہرے - -Uning ko'zlari ichiga botib ketgan va yuzining suyagi turtib chiqqan. کی حدیاں ابھر آئیں۔

جلد ہی سورج چڑھ آئیگا۔ -Tezda quyosh chiqadi (quyoshning bizga tomon yo'nalishi).

جب سورج اونچا چڑھ آئیگا تو بڑی گرمی ہو جا۔ -Kun tepaga kelganda, qattiq issiq bo'ladi (quyoshning bizga yaqin bo'lgan nuqtadan uzoqlashishi).

Makondagi ish-harakatni anglatmagan fe'llar bilan چا fe'li ish-harakatning yo'nalishi bildirmagan holda jadal amalga oshishini bildiradi:

Men kechasi tez uxlab qolaman va ertalab tez uyg'onib ketaman. —Men kechasi tez uxlab qolaman va ertalab tez uyg'onib ketaman.

گھنٹی بج گئی۔ کلا میں ختم ہو گئیں۔ —Qo'ng'iroq chalinib qoldi. Darslar tugadi.

ko'makchi fe'li o'timli ham o'timsiz fe'llar bilan birikib kelsa, چا fe'li faqat o'timli fe'llarga qo'shilib keladi.

چا fe'li o'timli fe'llarga qo'shilganda asosiy fe'l bildirgan ish-harakat subyektning foydasiga hal bo'lishini, ish-harakatning obyektining natijasi subyektga yo'nalganini anglatadi. چا ko'makchi fe'li esa aksincha, ish-harakat subyektning emas, boshqa biron shaxsning foydasi uchun amalga oshganini bildiradi. Ish-harakatning natijasi subyektidan yiroqlashadi, boshqa shaxsqa qarab yo'naladi. Masalan:

اپنے جوتے اتار لو۔ —Oyoq kiyimingni yechib ol.

بچے کے جوتے بھی اتار لو۔ —Bolaning ham tuffisini yechib ol (u ham o'zingda tursin).

لڑکی نے اپنے بال کاٹ دیے۔ —Qiz sochini kesib qo'ydi (sochi kesildi, ya'ni boshidan alohida)

بچی نے اپنی انگلی کاٹ لی۔ —Qiz qo'lini kesib oldi (qo'li o'zida).

میں اس کا پتہ تم کو معلوم کر دوں گا۔ —Men senga uning manzilini bilib beraman (bir asosiy fe'l orqali ikki yo'nalishdagi ish-harakat ifodalangan).

میں اس کا پتہ معلوم کر لوں گا اور پھر تم کو بتا دوں گا۔ —Men uning manzilini aniqlab olaman va senga aytib beraman (olaman va beraman).

تم اپنا کوٹ اتار دو۔ اتار کر کسی کو دے دو یا ایک طرف رکھ دو۔ —Kurtkangni yechib qo'y. Yechib uni birortasiga berib qo'y yoki uni biron joyga qo'y.



لینا va دینا bilan qo‘shilib keladigan o‘timli fe‘llar uch guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga subyekt tomonga yo‘nalgan ish-harakatni bildirgan o‘timli fe‘llar kiradi. Bularga لینا “olmoq”, کھانا “yemoq”, چائنا “bilmoq”, دیکھنا “ko‘rmoq”, سنا “eshitmoq” va boshqalar kiradi. Bular odatda fe‘li bilan qo‘shilib keladi. Masalan:

اس نے ازیوں کا تاب نہ لاکر زہر کھالی، خودکشی کر لی۔ —U azoblarga dosh bera olmay, zahar ichib qo‘ydi, o‘z joniga qasd qilib qo‘ydi.

Ikkinchi guruhga subyektdan boshqa tomonga yo‘nalgan ish-harakatni anglatuvchi o‘timli fe‘llar kiradi. Masalan: دینا “bermoq”, چھیننا “jo‘natmoq”, دکھانا “ko‘rsatmoq”, سنا “gapirib bermoq, so‘zlab bermoq”, سنا “kuldirmoq” va hokazo. Bunday fe‘llar odatda دینا “bermoq” yordamchi fe‘li bilan birga keladi. Masalan:

میں کسی کو بھیج دوں گا اور وہ ان کو یہ خوشخبری سنا دے گا۔ —Men birontasini jo‘nataman, ularga bu yaxshi xabarni yetkazadi.

Uchinchi guruhga hech qanday yo‘nalishni anglatmagan fe‘llar kiradi. Ular bildirgan ish-harakat subyekt tomonga yo‘nalgan yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Bularga کرنا “qilmoq”, لکھنا “yozmoq”, رکھنا “qo‘ymoq”, تڑونا “sindirmoq, uzmoq”, نکالنا “chiqarmoq, haydab chiqarmoq” kabi fe‘llar kiradi. Ular لینا bilan ham دینا bilan qo‘shilib kelishi mumkin. Masalan:

انہوں نے اپنے بچے کا نام عظیم رکھ دیا۔ —Ular bolasiga Azim deb nom qo‘yishdi.

اس نے اپنا نام عظیم رکھ لیا۔ —U o‘ziga Azim deb nom qo‘yib oldi.

میں تمہارا پتہ لکھ لوں گا اور اپنا پتہ تم کو لکھ دوں گا۔ —Men sening manzilingni yozib olib, o‘zimmikini senga yozib beraman.

“Tushunmoq” ma’nosidagi **تھنما** fe’li shaklan o’timsiz hisoblanganligi sabab **جانا** fe’li bilan qo’shiladi. “hisoblamoq, deb bilmoq” ma’nosida esa o’timli bo’lgani uchun **لينا** bilan qo’shib keladi:

تم میرا مطلب سمجھ گئے یا نہیں؟ –Meni tushundingmi yo yo’qmi?

کیا تم نے مجھ کو کوئی ہیرو قوف چھ سمجھ لیا؟  
–Sen meni aqlsiz bola deb o’yladingmi?

“Unutmoq” ma’nosidagi **بھولنا** fe’li **لينا** bilan qo’shilganda beixtiyor o’zi istamagan holda amalga oshgan ish-harakatni bildirib, **بھولنا** esa oldindan bilib, o’ylab qilingan ish-harakatni anglatgani bois **لينا** bilan qo’shib keladi. Masalan:

میں جلدی میں ایک بات کہنا بھول گیا۔ –Shoshilganda bir gap aytish esimdan chiqib qoldi.

آپ نے مجھ کو بالکل بھول دیا۔ –Siz meni butunlay unutib yubordingiz.

Bir qator o’timsiz fe’llar **جانا** bilan ham, **لينا** bilan ham qo’shib keladi. Tarkibida **جانا** fe’li bor intensiv fe’llar qo’qqidan, to’satdan va jadallik bilan amalga oshgan ish-harakatni bildiradi. **لينا** li intensiv fe’llar ozmi-ko’pmi uzoq davom etuvchi, ammo nihoyasiga yetgan ish-harakatni anglatadi.

پيٹھ جانا –o’tirmoq

پيٹھ لينا –o’tirib olmoq

ليٹ جانا –yotib olmoq, yotmoq

ليٹ لينا –yotib olmoq

سول جانا –uxlab qolmoq

سول لينا –uxlab olmoq

جاگ جانا –uyg’onib ketmoq

جاگ لينا –uyg’onib olmoq

ٹل جانا –uchrashib qolmoq

ٹل لينا –uchrashib olmoq

Misollar:

- Tez orada bola uxlab qoldi. تھوڑی دیر میں بچہ سو گیا۔
- Men biroz mizg'ib oldim, dam oldim. میں تھوڑی دیر سو لیا، آرام کر لیا۔
- Men ertalab roppa-rosa yettida uyg'onib ketaman. میں صبح ٹھیک سات بجے جاگ جاتا ہوں۔
- Kerak bo'lsa men tuni bo'yi uxlamay o'tiraman. ضرورت پڑنے پر میں رات بھر جاگ لیتا ہوں۔
- Anavi narsani topdingmi? وہ چیز تمہیں مل گئی؟
- Men u bilan albatta uchrashib olaman. میں اس سے ضرور مل لوں گا؟

“ot + کھانا” turidagi frazeologik birikmalardagi “کھانا” o'timli bo'lsada, o'timsiz fe'l جانا bilan qo'shiladi. Masalan:

- Jim! Hozir yeb qolasan! چپ رہو۔ نہیں تو مار کھا جاؤ گے۔
- Birovlarni aldamoqchi edi, o'zi aldanib qoldi. اس نے دوسروں کو دھوکہ دینا چاہا، لیکن خود دھوکہ کھا گیا۔
- U bir toshga qoqilib ketdi. وہ ایک پتھر سے ٹھوکر کھا گئی۔

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing va og'zaki tarjima qiling:

روشنی

(کہانی کا خلاصہ)

میں ایک پہاڑی علاقے میں سب ڈویژن پولیس مقرر ہوا اور ایک دن گھوڑے پر سوار ہو کر اپنے علاقے کے تھانوں کا معائنہ کرنے دورے پر نکلا۔ ایک تھانے کا معائنہ کر کے میں دوسرے تھانے کی طرف چلا۔ بہار کا موسم تھا، چھاگوں کا مہینہ۔ آٹھ میل کا راستہ تھا لیکن منظر بڑا سہانا تھا۔ جگہ جگہ کھیتوں میں کسان کام کرتے تھے۔ میرا گھوڑا

آہستہ آہستہ دگی چال چلا جاتا تھا۔ اچانک ٹھنڈی ہوا کا ایک جھونکا میرے جسم تک آیا۔ میں نے سر اٹھا کر دیکھا۔ مشرق کی طرف آسمان گرد آلود تھا۔ یہ آندھی کی علامت تھی۔ میں نے گھوڑے کی رفتار تیز کر دی۔ ہوا تیز ہو گئی اور تھوڑی دیر میں وہ گرد و غبار میرے سر پر آ گئی۔ دیکھتے ہی دیکھتے میں دھول مٹی کے سمندر میں ڈوب گیا۔ رہ رہ کر بادل گرج اٹھے۔ بجلی چمک اٹھتی۔ وہ سرسراہٹ اور گڑ گڑاہٹ تھی کہ خدا کی پناہ! دھول کے مارے کچھ بھی دکھائی نہیں دیتا تھا۔ یہاں تک کہ راستہ بھی نظر نہیں آتا تھا۔ میں گھوڑے کی گردن سے چرٹ گیا اور اس کی ایالوں میں منہ چھپا لیا۔ سنگ ریزے دھول کے ساتھ اڑ کر آتے اور ایسے زور سے میرے منہ پر لگتے ہیں کہ بلبل اٹھتا۔ ادھر ادھر درختوں کے ٹوٹنے کی آوازیں سنائی دیتی تھیں۔ اگر کوئی درخت میرے اوپر آگری تو کیا ہوگا؟ اگر کوئی چٹان میرے اوپر ٹوٹ کر گر پڑی تو کیا ہوگا؟ یہ سوچ کر میں کانپ اٹھتا تھا۔ اچانک ایسے زور سے بجلی چمکی کہ میں لرز اٹھا۔

اچانک چمن چمن کی آوازیں سن کر میں چونکا۔ اس گڑ گڑاہٹ میں بھی وہ آواز صاف سنائی دیتی تھی۔ ایک لمحہ میں وہ آواز میرے نزدیک آ گئی۔ پھر میں نے دیکھا کہ ایک عورت سر پر کھانچی رکھ کر میری طرف چلی آتی ہے۔ نہ آندھی سے ڈرتی ہے اور نہ چٹانوں کے ٹوٹ کر گرنے کی اسے فکر ہے۔ عورت کی دلیری دیکھ کر مجھے اپنی بزدلی پر شرم آئی۔ میں نے اونچی آواز میں پکارا:

—اے عورت، گن پور یہاں سے کتنی دور ہے؟

عورت رک گئی۔ وہ میرے قریب آئی اور مجھ کو دیکھ کر ذرا سر جھکا لیا اور بولی:

—میرے پیچھے چلے آؤ۔ آگے ہمارا گاڈل ہے۔ اس کے بعد گن پور ہے۔

میں نے پوچھا: تم اس آندھی میں کہیں رک کیوں نہیں گئیں؟

—چھوٹے چھوٹے بچے گھر پر ہیں، میں کیسے رکوں گی؟ مرد تو بھگوان کے گھر چلا گیا۔ اس نے جواب دیا۔

اتنے میں آندھی کا اتنے زور کاربلا آیا کہ میں دو تین قدم پیچھے کھسک گیا اور گھوڑے کے ایالوں میں منہ چھپا

لیا۔ عورت کا کیا بنا، معلوم نہیں۔ تھوڑی دیر میں آندھی کا زور کم ہونے لگا۔ کوئی دس پندرہ منٹ میں آندھی رک گئی

اور آسان صاف ہو گیا۔ میں آگے بڑھا اور جلد ہی ایک گاؤں میں پہنچ گیا۔ جو نہی میں گاؤں پہنچا وہ عورت دکھائی دی۔ وہ ایک بچے کو گود میں اٹھا کر چلی آتی تھی۔ جو نہی مجھ کو دیکھا اس نے پوچھا:

- تم کہاں رہ گئے بابو جی؟ میں ڈری کہ تم راستہ بھول گئے۔ تم کو ڈھونڈنے نکل آئی۔

- عورت کی شرافت سے متاثر ہو کر میں نے اس کا شکر یہ ادا کیا۔ اس نے مجھے گن پور کا راستہ بتا دیا۔ پھر میں نے اس سے پوچھا: تمہیں بیوہ ہوئے کتنے دن ہوئے؟

- مجھے بیوہ ہوئے چھ مہینے ہوئے بابو جی، اس نے جواب دیا۔ تب سے گھاس چھیل کر اپنا پیٹ پالتی ہوں اور بچوں کی پرورش ہوں۔

- میری آنکھوں میں آنسو بھر آئے۔ میں نے جیب سے پانچ روپے کا نوٹ نکال کر عورت کی طرف بڑھایا اور کہا: یہ میری طرف سے بچوں کی مٹھائی کے لیے، یہ لو۔

عورت ایک قدم پیچھے ہٹ گئی۔ بولی:

- نہیں بابو جی، میں غریب ہوں لیکن بھکارن نہیں ہوں۔

میں نے بہت اصرار کیا اور کہا: یہ بھیک نہیں ہے۔ بچوں کی مٹھائی کے لیے ہیں۔ تم مجھ کو اپنا بھائی مان کر لے لو لیکن اس نے روپیا لینے سے صاف انکار کر دیا۔ وہ بولی:

- نہیں بابو جی، میرے مرو کی عزت بھی تو میرے ہاتھ میں ہے۔

- میں دل میں بہت شرمندہ ہوا۔ غریب طبقے کی ایک عورت میں یہ خودداری، یہ فرض شناسی، یہ توکل۔ میں تو ان

لوگوں کو جاہل اور خود غرض سمجھتا تھا۔ میں نے نام ہو کر روپیہ جیب میں رکھ لیا اور کھوٹے کو ایسے لگا کر آگے بڑھ گیا۔

## 2-topshiriq. Quyidagi fe'llar ishtirokida jummlar tuzing.

آنا، لینا، اٹھنا، بیٹھنا، بٹھانا، کھڑا ہونا، بند کرنا، بند ہونا، واپس کرنا، واپس ہونا، واپس دینا، کھانا،

پینا، سنانا، ستنا، دیکھنا، دکھانا، دکھائی دینا، روکنا، آرام کرنا، رکنا، کھلنا، کھولنا، سونا، جاگنا، نکلنا، تیار

کرنا، تیاری کرنا، ٹیل ہونا، گزارنا

3-topshiriq. Quyidagi intensiv fe'llarni tarjima qiling va yod oling.

رک جانا، روک دینا، بیٹھ جانا، بیٹھ لینا، سن لینا، سنا دینا، روڑنا، تیج اٹھنا، پوچھ بیٹھنا، لوڑ ڈالنا، سو جانا، سولینا، بھول جانا، بھلا دینا، کر لینا، ہو جانا، جان جانا، سمجھ جانا، سمجھ لینا، سمجھا دینا، مر جانا، دوڑ جانا، دوڑ لینا، مل جانا، مل لینا، جوڑ دینا

4-topshiriq. Matnni ifodali o'qing va og'zaki tarjima qiling.

### تمک کا تھیلا

ایک دن جنگل کے چھ جانوروں کو اچانک تمک کا تھیلا ملا۔ جانوروں میں سے ہر ایک نے تمک کا خود اکیلا ٹانگ بنا چاہا۔ نتیجہ یہ ہوا کہ ان میں لڑائی شروع ہوئی۔ اتنے میں کہیں سے ایک گیدڑ وہاں آیا۔ اس نے لڑنے کی وجہ پوچھی۔ جانوروں نے سارا قصہ اس کو سنایا۔ گیدڑ نے سارا قصہ خاموشی سے سنا اور پھر اس نے کہا: اچھی بات ہے۔ یہ مسئلہ میں حل کروں گا۔ تم سب آنکھیں بند کرو اور سوتک گنو۔ اتنے میں میں تھیلے کو کسی جگہ چھپاؤں گا۔ پھر تم میں سے جو اس کو سب سے پہلے پائے گا وہ تمک کا مالک بنے گا۔ سب جانور راضی ہو گئے۔ انہوں نے آنکھیں بند کیں اور کنتی گنتے لگے۔ انہوں نے سوتک گنا اور پھر اپنی آنکھیں کھول کر تھیلے کی تلاش کرنے لگے۔ انھوں نے خوب تلاش کیا۔ سب جگہ دیکھا لیکن تھیلا کہیں نہیں ملا۔ بالآخر وہ مایوس ہوئے اور آپس میں طے کیا کہ اب ہم گیدڑ سے پوچھ کر تھیلے کو نکالیں گے اور تمک کو چھ برابر حصوں میں تقسیم کریں گے۔ انہوں نے یہ طے کیا اور پھر گیدڑ کو آواز دینے لگے۔ انھوں نے خوب آوازیں لگائیں لیکن کوئی جواب نہیں ملا۔ تب وہ اپنی غلطی سمجھے۔ انہوں نے بہت افسوس کیا لیکن اب کیا فائدہ؟ اس طرح چالاک گیدڑ بوقوف جانوروں کو دھوکہ دے کر ان کا تمک لے گیا۔ جانور اپنی بوقوفی کی وجہ سے تمک سے ہاتھ دھو بیٹھے (مخروم ہو گئے)۔

### DIDAKTIK QISM

مشق ۱۔ مندرجہ ذیل الفاظ اور عبارات کا ترجمہ کیجیے اور نقل کیجیے۔

1. Men xatni o'qidim va tezda javob yozdim. 2. U har galgidek soat yettida uyg'ondi. Uyg'onib, ko'zlarini ochdi va tezda o'rnidan

turdi. Yuz-qo‘lini yuvib, kiyindi va nonushta qilgani o‘tirdi. Nonushta qilib, ishga ketdi. 3. Sekinroq gapir, eshitib qolsa, xafa bo‘ladi. 4. O‘tir. Ovqatlanib ol. Bo‘lmasa, ovqat sovub qoladi. 5. Qorong‘i tushgan edi. Men toshga qoqilib ketib, yiqildim. 6. Yomg‘ir mavsumida daryoning ko‘p joylarida suv qirg‘oqlardan tashqariga chiqib ketib, chor-atrofdagi dalalarni suv bosadi. Hosil nobud bo‘ladi (فصلیں). Uylar buzilib ketadi.

Odamlar ham halok bo‘ladi مرءا (“o‘lmoq”). 7. O‘ylashimcha, endi ularning ko‘zi ochiladi. Bu voqea albatta ularning ko‘zini ochib qo‘yadi. Kim kimligini endi tushunib oladilar. 8. Yotib o‘qima. Ko‘zingni buzasan. 9. Taksi ol. Bo‘lmasa, kech qolasan. 10. O‘ylashimcha, biz kech qolamiz. Biz shoshmaslgimiz kerak. Oidindan hammasini yaxshilab o‘ylab olishimiz kerak. 11. U bir necha misra o‘qib kitobni yopib qo‘ydi. Ko‘zoynagini yechdi, stolga qo‘yib, o‘rnidan turdi. 12. Bu ishga kirishishdan oldin otang bilan gaplashib ko‘r, maslahatlashib ol (سے مشورہ کرنا). 13. Hamma mashaqqatlar ortda qoldi, deb hisoblayver. Sen muvaffaqiyat qozonasan. 14. Biz vazifalarimizni taqsimlab olib, ishga kirishib ketdik. 15. U o‘z xatosini albatta tushunib oladi. Kech bo‘lmasa deb qo‘rqaman. 16. Bunday masofani odam bir kunda, mashina esa bir soatda (عھتدہ) bosib o‘tadi. 17. Sen nega qorong‘uda o‘tiribsan? Chiroqni yoqib qo‘y. 18. U xonaga kirdi va chiroqni yoqdi. 19. U aldadi. Aldamoqchi bo‘ldi, ammo boshqalar undan ayyorroq chiqib qoldi. Natijada uning o‘zi aldanib qoldi.

مشق ۲۔ مندرجہ ذیل الفاظ اور عبارات کا ترجمہ کیجیے اور نقل کیجیے

1. Shamol esdi. 2. O‘ng tomondan sovuq shamol esdi. 3. Sovuq shamol menga kelib urildi. 4. Shamol kuchaydi va bo‘ronga aylandi. 5. Men chang ummoniga g‘arq bo‘ldim. 6. Yurish qiyinlashdi va men to‘xtadim. 7. Bo‘ronning dastidan daraxt sindi va yo‘lga ag‘darildi. Mashina va yo‘lovchilarning yo‘lini to‘sib qo‘ydi. 8. Kuchli shamolda birdan deraza ochilib ketdi. Tokchadagi gultuvak polga tushib ketdi va sindi. 9. Kuchli shamol uni boshidagi qalpog‘ini uchirib ketdi.

1. U o'zining qo'rqoqligidan uyalib ketdi. 2. Ular uning ahmoqligidan xijolat bo'lishdi. 3. Uyalmaysanmi? 4. Kimdan, nima uchun uyalishim kerak? 5. Men uni qo'rqoq deb o'ylardim. U mendan ko'ra botirroq chiqib qoldi. 6. Qiz toshga qoqilib ketib, og'riqdan ingrab yubordi. 7. Birdan yashin chaqib, momaqaldiroq gumburladi. U shunday qo'rqib ketdiki, sal qolsa otdan tushib ketay dedi. 8. Men adashib qoldim. Yaxshiyanki, bir cho'l uchrab qoldi va menga yo'lni aytib berdi. 9. Politsiya xodimi past tabaqa odamlari haqida juda yomon fikrda edi. U ularni johil va xudbin deb o'ylardi. Ammo bir kuni shu tabaqadagi ayolni uchratib qoldi va u tezda uning fikri noto'g'ri ekanligini isbotladi. U mehnatkash, oqko'ngil va dovyurak ayol ekan. 10. Ayol beva edi. Kichkina, yosh bolalari bor edi. Har kuni bolalarini uyda yolg'iz qoldirib, pul topgani ketardi. Bir savat o't o'rib sotardi va topgan puliga oilani boqardi. 12. Politsiya xodimining ayolga shu qadar rahmi keldiki, ko'zidan yosh chiqib ketdi. U ayolga biroz pul bermoqchi edi, u pulni olishdan butunlay bosh tortdi. U orqaga tisarilib ketdi va kambag'alligini, lekin tilanchi emasligini aytdi. Buning ustiga u vafot etgan erining sha'ni haqida o'ylardi.

***Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:***

1. Murakkab intensiv fe'llar qanday yasaladi?
2. Ko'makchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlarini gapirib bering.
3. Intensiv fe'llarning umumiy ma'nosi deganda nimani tushunasiz? Berilgan matn bo'yicha o'nta savol tuzing.
4. Matnda uchragan so'zlarni yodlang.



اھڻا، ڀڙنا، ٻيھڻا، ڏاڻا FE'LLARI BILAN YASALGAN MURAKKAB  
INTENSIV FE'LLAR

اھڻا، ڀڙنا، ٻيھڻا، ڏاڻا کے ساتھ بننے والے افعال

**Mavzuning o'quv maqsadi:** talabalarda اھڻا، ڀڙنا، ٻيھڻا، ڏاڻا fe'llari bilan yasalgan murakkab intensiv fe'llar, potensial fe'llarni gapda qo'llashga doir malaka hosil qilish.

**Tayanch so'z va iboralar:** ko'makchi fe'l, murakkab intensiv fe'llar, potensial fe'llar.

اھڻا ko'makchi fe'li odatda tabiat hodisalari yoki inson ruhiyati, uning ichki holati qo'rquv, hayajon, xursandchilik, hayrat kabi holatlarni anglatuvchi fe'llar bilan qo'shilib keladi اھڻا intensiv fe'li qo'qqisdan, to'satdan, kutilmaganda amalga oshgan ish-harakatni bildiradi. Misollar:

میرادل دھک دھک اھڻا۔ -Yuragim duk-duk urib ketdi.

اچانک ٻيلي فون زور سے بج اھڻا تودہ چونک اھڻي۔ -Birdan telefon qattiq jiringlab ketdi va u cho'chib tushdi.

اھڻا ko'makchi fe'li o'timsiz fe'llar bilan qo'shilib, birdan, shiddat bilan amalga oshgan ish-harakatni bildiradi. Bu ish-harakatning o'zi tez va to'liq amalga oshadi. Masalan:

دوڑنا -chopmoq, yugurmoq دوڑڻنا -yugurib ketmoq (birdan)

ٻڻنا -kulmoq ٻڻسڻڻنا -kulib yubormoq

کرننا -tushmoq گرڻڻنا -tushib ketmoq

رونا -yig'lamoq روڻڻنا -yig'lab yubormoq

چینا -baqirmoq, qichqirmoq چینچ پڑنا -baqirib yubormoq

چینا -tommoq ٹپک پڑنا -tomib ketmoq

چلنا -yurmoq, ishlamoq چل پڑنا -yurib ketmoq, ishlab ketmoq

Ko'pincha bitta asosiy fe'ldan ikki xil intensiv fe'l yasaladi: biri دینا va چلنا fe'llari bilan, ikkinchisi: پڑنا bilan- Ikkala intensiv fe'l bir xil mazmundagi, ammo turli ma'no bo'yog'iga ega bo'lgan ish-harakatni anglatadi. Masalan:

کولیب دینا -kulib qo'ymoq کولیب پڑنا -kulib yubormoq

مکرا دینا -jilmayib qo'ymoq مکرا پڑنا -kulib yubormoq

رودینا -yig'lab bermoq رو پڑنا -yig'lab yubormoq

چل دینا -yurib ketmoq چل پڑنا -yurib ketmoq (jadal)

لڑچانا -urishib ketmoq لڑ پڑنا -urishib qolmoq

ٹوٹ جانا -sinib ketmoq ٹوٹ پڑنا -sinib qolmoq

چھوٹ جانا -chiqib ketmoq چھوٹ پڑنا -chiqib ketmoq (nogoh)

ko'makchi fe'li faqat o'timli fe'llar bilan keladi. U ish-harakatning osongina, tez, ikkilanmay, to'la ravishda amalga oshishini bildiradi. Masalan:

یہ کوئی مشکل کام نہیں ہے۔ کر ڈالو۔ -Bu umuman qiyin emas. Qilib tashla.

تم یہ خیال اپنے دماغ سے نکال ڈالو۔ -Sen bu fikrni xayolingdan chiqarib tashla.

انہوں نے سارا گھر دیکھ ڈالا۔ وہ چیز نہ ملی۔ -Hamma uyni ko'rib bo'lishdi. O'sha narsa topilmadi.

مرغیاں آنگن کو کھو ڈالیں گی۔ -Tovuqlar hovlini kavlab tashlaydi.

ما' fe'li ikki xil – “urmoq” va “o'ldirmoq” ma'nosiga ega. Birinchi ma'noda u دينا “ko'makchi” fe'li bilan qo'shiladi, ikkinchi ma'noni bildirganda دانا bilan keladi: مار دينا “urib yubormoq”, مار دانا “o'ldirib qo'ymoq”, پيٹ ڈانا intensiv fe'li “kaltaklamoq, urmoq” ma'nosida keladi.

پيٹنا ko'makchi fe'li faqat o'timli fe'llar bilan keladi. U ko'pincha qo'qqisdan, birdan, ittifoqo, beixtiyor amalga oshgan ish harakatni bildiradi:

چپ پيٹو۔ نہیں تو مار پيٹوں گا۔ -Jim o'tir. Aks holda urib tashlayman.

وہ میرے دکھتے رگ کو چھو بیٹھا۔ -U mening nozik joyimdan oldi.

### Murakkab potensial fe'llar

امکان ظاہر کرنے والے مرکب اتصال

Murakkab potensial fe'llar سکتا fe'li bilan yasaladi. U asosiy fe'ling o'zagiga qo'shiladi. Yordamchi سکتا fe'li asosiy fe'l bildirgan ish-harakatni bajarishga qodirlik yoki aksincha, shu imkoniyatning mavjud emasligini, biron ish-harakatning cheklangan darajada yoki muvaffaqiyatsizlik bilan amalga oshishini bildiradi. Birinchi mazmun ko'pincha hozirgi va o'tgan tugallanmagan zamonlarda, ikkinchi mazmun esa o'tgan tugallangan va kelasi zamonlarda ifodalanadi.

Potensial fe'l shaklan o'timsiz bo'lib, doimo subyektsiz konstruksiyada qo'llanadi. Masalan:

ہم ایک دوسرے کی مدد کر سکتے ہیں اور کرتے ہیں۔ -Biz bir-birimizga yordam berishimiz mumkin va yordam beryapmiz.

وہ آسکتی تھی، لیکن نہیں آئی۔ -Kelishi mumkin edi, ammo kelmadi.

-Hozir hech narsa deya olmayman. میں اس وقت کچھ نہیں کہہ سکتی۔

-Biznikiga qachon kelishing mumkin? تم ہمارے ہاں کب آسکو گے؟

-Men bugun u bilan uchrasha olmayman, ertaga uchrashishim mumkin. میں آج اس سے نہیں مل سکوں گا، کل مل سکوں گا۔

-Uni hech kim ko'ndira olmadi. کوئی اس کو قائل نہیں کر سکا۔

Ko'pincha potensial fe'l hozirgi tugallanmagan zamonda inkor yuklamasi bilan kelsa, fe'lining hozirgi zamon oddiy shakli qo'llaniladi:

-Bu borada biz hech narsa deya olmaymiz. ہم اس بارے میں کچھ نہیں کہہ سکتے۔

-Ayollar bunday ishni uddalay olmaydilar. ایسا کام عورتیں نہیں کر سکتیں۔

Yordamchi fe'l faqat asosiy fe'l bilan birgalikda qo'llanadi.

## AMALIY MASHQLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing va og'zaki tarjima qiling.

بھینس، گھوڑا اور انسان

ایک دفعہ بھینس اور گھوڑے میں لڑائی ہو گئی۔ یہ دونوں ایک ہی جنگل میں رہتے تھے، پاس پاس چرتے تھے اور ایک ہی راستے سے جا کر ایک ہی ندی کا پانی پیتے تھے لیکن ایک دن یہ دونوں نہ جانے کس بات پر لڑ پڑے۔ بھینس نے سینگ مار مار کر گھوڑے کو لہو لہان کر دیا۔ جب گھوڑے نے دیکھا کہ بھینس سے نہیں جیت سکتا تو وہ وہاں سے بھاگا۔ وہ بھینس کے پاس سے بھاگ کر انسان کے پاس آیا اور اس سے مدد مانگنے لگا۔ انسان نے کہا: بھینس کے بڑے بڑے سینگ ہیں۔ میں اس سے کیسے جیت سکتا ہوں؟

گھوڑے نے اس کو سمجھایا: تم ایک موٹا ڈنڈا ہاتھ میں لے کر میری پیٹھ پر بیٹھ جاؤ۔ میں تیز تیز دوڑوں گا۔ تم ڈنڈے سے مارا کر بھیئیں کو ادھ مرا کر دو اور پھر اس کو رسی سے باندھ لو۔

میں اس کو باندھ کر کیا کروں گا؟ انسان نے تعجب سے پوچھا۔

گھوڑے نے بتایا: بھیئیں میںٹھاٹھا دودھ دیتی ہے۔ تم اس کا دودھ پی سکو گے۔

انسان نے گھوڑے کی بات مان لی۔ اس نے ایک موٹا ڈنڈا ہاتھ میں لے لیا اور گھوڑے پر سوار ہو گیا۔ گھوڑا تیز تیز دوڑنے لگا۔ انسان بھیئیں کو ڈنڈے سے مارنے لگا۔ بھیئیں انسان کی برابری نہیں کر سکی اور بے دم ہو کر گر پڑی۔ انسان گھوڑے سے اترا اور بھیئیں کو رسی سے باندھ لیا۔ جب لڑائی ختم ہو گئی تو گھوڑے نے انسان سے کہا: اب تم مجھ کو چھوڑ دو۔ میں چرنے جاتا ہوں۔

انسان زور سے ہنس پڑا۔ اس نے کہا: اب میں تم کو بھی نہیں چھوڑوں گا۔ میں نہیں جانتا تھا کہ تم میری سواری کے کام آسکتے ہو۔ اب میں بھیئیں کا دودھ پوں گا اور تمہارے اوپر چڑھ کر دوڑوں گا۔ گھوڑا بہت رویا۔ اس نے انسان سے ملتیں کیں لیکن انسان ہنس سے مس نہ ہوا۔ گھوڑے نے لاچار ہو کر اپنی ہار مان لی۔ وہ انسان کے ساتھ رہنے لگا اور اس کی خدمت کرنے لگا۔

## DIDAKTIK QISM

مشق ۱۔ مندرجہ ذیل الفاظ اور عبارات کا ترجمہ کیجیے۔

(۱) گاندھی جی ہندوستان میں پیدا ہوئے۔ (۲) گندگی جراثیم کو پیدا کرتی ہے۔ (۳) اگر میں امریکہ میں پیدا ہوتی ہوتی تو کیا کیا نہیں کر سکتی تھی! (۴) آپ کون سے سال میں پیدا ہوئے؟ (۵) یہ کھلونا ٹوٹا ہوا ہے۔ (۶) اس لڑکے کو مت ستاؤ اس کا دل ٹوٹا ہوا ہے۔ (۷) اس پکے کو میں نے نہیں توڑا۔ (۸) یہ پہلے سے ٹوٹا ہوا تھا۔ (۹) کیا آپ سینل اور رادھا کے ٹوٹے ہوئے دلوں کو جوڑ سکتیں گے؟ (۱۰) تاج محل سنگ مرمر کا بنا ہوا ہے۔ (۱۱) یہ دیواریں پتھر کی بنی ہوئی تھیں۔

1. Men senga yordam bera olaman. 2. Sen ertaga menikiga kela olasanmi? 3. Sen bilmasang, biz senga aytib berishimiz mumkin. 4. Maslahatni hamma bera oladi, bajarish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. 5. Onalar bolalariga yomonlik tilay olmaydi. 6. Qanday qilib yolg'on gapirishing mumkin? 7. Men bunday qila olmasdim. Sen qila olding. Nima uchun qilding? 8. Havosiz yashash mumkinmi? 9. Shu yerda o'tirishim mumkinmi? 10. Hech kim bu savolga javob bera olmadi. 11. Fikrimcha, ular buni tushunadilar. 12. Harakat qilmasang ham bo'ladi. Ish chiqmaydi. 13. Shoshilmasangiz ham bo'ladi. Hali vaqt bor. 14. Bunday paytda qanday qilib qo'lni qo'lga qovushtirib o'tirish mumkin? 15. Siz uchun men hamma narsaga tayyorman. 16. Biz uni o'zimiz bilan ketishga ko'ndira olmadik. 17. Bu talabalar urduda o'qib yoza oladilar. Birovning nutqini biroz tushuna oladilar. Ammo hozircha gapira olmaydilar. Tez orada gapirishga umid qiladilar. 18. Uni alday olmaysan. Uning o'zi hammani aldab qo'yadi. 19. Sening orzularing ro'yobga chiqishiga ishonaman. 20. Meni ishontira olmadingiz.

***Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar:***

1. Murakkab potensial fe'liar qanday yasaladi?
2. Murakkab potensial fe'llar qachon qo'llanadi?
3. Murakkab potensial fe'llar qatnashgan beshta gap tuzing.
4. Berilgan matn bo'yicha o'nta savol tuzing.

## 32-DARS

### YUKLAMALAR. KUCHAYTIRISH YUKLAMALARI

تاکید و تخصیص کے حروف

**Mavzuning o'quv maqsadi:** *Urdu tilida yuklama va uning turlari bilan tanishish, ko'nikmalarni shakllantirish.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *yuklama, kuchaytirish yuklamasi, olmoshlarning kuchaytirma yuklamalari, o'xshatish yuklamalari.*

Urdu tilida turli xil so'z turkumlari bilan qo'shib, ularning ma'nosini yanada kuchaytirib keladigan, qo'shimcha ma'no beradigan yuklamalar keng qo'llaniladi. Bunday yuklamalar oltita:

تھوڑا سا، تک، تو، بھی، ہی

1. "ہی" yuklamasi o'zbek tiliga ayni, xuddi, o'zi, roppa-rosa, -gina, bor-yo'g'i, -ku deb tarjima qilinadi.

یہ مجھے کرنا ہے۔ میں ہی کروں گا۔  
-Buni men qilishim kerak. Men o'zim qilaman.

ہم وہاں دو چار روز ہی رہیں گے۔  
-Biz u yerda bir necha kungina bo'lamiz.

وہ چلا گیا اور کسی کو اس کا پتہ ہی نہ چلا۔  
-U ketdi va uning ketganini hech kim bilmadi ham.

آپ دیکھتے ہی ہیں کہ میں بیمار ہوں۔  
-Ko'ryapsiz-ku, kasalman.

2. "بھی" yuklamasi o'zbek tiliga "ham, shuningdek, hatto" deb tarjima qilinadi.

یہ میں بھی جانتا ہوں۔  
-Buni men ham bilaman.

میں یہ بھی جانتا ہوں۔  
-Men buni ham bilaman.

یہ بات وہ اپنے ماں باپ سے بھی چھپاتی تھی۔  
-Bu gapni u hatto ota-onasidan ham yashirardi.

” بھی ” takror qo‘llanganda o‘zbek tiliga “ham ..., ham ...” deb tarjima qilinadi.

وہ نوکری بھی کرتا ہے، اور پڑھتا بھی ہے۔ -U ham o‘qiydi, ham ishlaydi.

عمارت اندر سے بھی اور باہر سے بھی بہت خوبصورت ہے۔ -Bino ichkaridan ham, tashqaridan ham juda ko‘rkam.

میں نے بھی کچھ نہیں پوچھا اور اس نے بھی کچھ نہیں بتایا۔ -Men ham undan hech narsa so‘ramadim, u ham menga hech narsa demadi.

” بھی ” va ” ہی ” ketma-ket ishlatiladigan quyidagi jummalarga e’tibor bering:

یہ مشکل ہی نہیں، ناممکن بھی ہے۔ -Bu nafaqat qiyin, balki buning iloji ham yo‘q.

3. ” تو ” yuklamasi o‘zbek tilida “axir, -ku” mufoviq keladi.

یہ تو مزک ہے۔ تمہارا آگن تو نہیں ہے۔ -Axir bu ko‘cha. Uying emas-ku sening.

میں تو جانتا ہوں۔ مگر وہ تو نہیں جانتے۔ -Men-ku bilaman. Ular bilmaydi, axir.

میں ان سے ملتا تو ہوں، لیکن بہت کم۔ -Uchrashishga uchrashib turaman, lekin ora-chora.

4. ” بھی ” yuklamasi ” تک ” ning sinonimi bo‘lib, “hatto” deb tarjima qilinadi.

سب چھوٹے بچوں تک جانتے ہیں۔ -Bularning barini hatto yosh bola ham biladi.

اس نے میری طرف دیکھا تک نہیں۔ -U hatto men tomonga qayrilib ham qaramadi.

5. ” سا ” yuklamasi sifat bilan qo‘shilib kelib, uning ma’nosini kuchaytiradi. ” سا ” jins, son va kelishikda aniqlanmish bilan moslashib o‘zgaradi (سا سے سی):



- بڑا سامان –kattagina uy, juda katta uy, ancha katta uy  
 چھوٹے کمرے میں –kichkinagina uyda, ancha kichik uyda,  
 nisbatan kichik uyda  
 گرم سی چائے –issiq choy, issiqqina choy

6. ”تھوڑا“ yuklamasi fe’ning aniq shakllari bilan qo’shib, alohida urg’u berib aytiladi, bo’lishsizlik ma’nosini beradi. O‘zbek tiliga “egalik qo’shimchasi + -mi” yoki “egalik qo’shimchasi+ -ku” shakli bilan tarjima qilinadi. Gapda ega bilan moslashadi.

میں سب کچھ سمجھتا ہوں۔ کوئی بچہ تھوڑا ہوں۔ –Men hammasini tushunaman.  
 Bola emasman-ku?

ہم تھوڑے کہتے ہیں کہ تمہارا خیال غلط ہے۔ –Biz sen nohaqsan deb aytyapmizmi?

پانچوں انگلیاں ایک سی تھوڑی ہوتی ہیں۔ –Besh qo’l barobar emas-ku?

### Olmoshlarning kuchaytirma shakllari

ضمائر کی تاکید و حصیوں والی صورتیں

